

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

GEOGRAFIYA KAFEDRASI

MINTAQAVIY SIYOSAT
FANIDAN

MARUZALAR TO'PLAMI

NAMANGAN-2018

Mavzu 1. Mintaqaviy siyosatning mazmuni va mohiyati

Reja

1. Siyosat turlari.
2. Mintaqaviy siyosatning ob'ekti.
3. Davlatning ichki va tashqi ahvoliga printsip va munosabatlari.
4. Iqtisodiy siyosatning asosiy mohiyat va maqsadi

Har bir mamlakat o'zining turli yo'nalishdagi siyosatini amalga oshirib boradi. Bu uning mustaqil, suveren davlat ekanligini eng muhim belgilaridan hisoblanadi. Siyosat esa sub'ektning u yoki bu masalaga (ob'ektga) nisbatan tutgan yo'l-yo'riqlarini, ko'rsatma va tadbirlari majmuasidir.

Siyosat turlari ham ko'p. Odatda siyosat deganda ko'proq siyosiy masalalar ko'z oldimizga keladi. Vaholanki, bu faqat «siyosiy siyosatdir», aslida esa siyosatning turlari xilma xil. Masalan, davlat yoki oila boshlig'ining o'z qo'shnilariga, ichki va tashqi ahvoliga, iqtisodiyotiga, ijtimoiy hayotga, fan-texnikasi kabi masalalarga ma'lum bir yo'nalish va maqsaddagi bosh printsip va munosabatlari bo'ladi. Bu munosabatlar sub'ekt, ya'ni boshqaruvchi tomonidan bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilib boriladi. Bizning mamlakatimizda bozor munosabatlariga o'tish davrining 5 asosiy tamoyillari orasida davlatning bosh islohotchi ekanligi ta'kidlangan. Demak, demokratik jamiyat qurish, xalq turmush sharoitini yaxshilash, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi mavqeyini mustahkamlash kabi tub masalalar davlat tomonidan belgilanadi va hal etiladi.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy rivojlanishning pirovard natijalari, strategiyasi ijtimoiy (sotsial) maqsadlarga yo'naltirilgan. Binobarin, vosita, yo'nalish iqtisodiyot bo'lsa, uning maqsadi ijtimoiy jabhalar, aholining yashash sharoiti va darajasini yaxshilab berishdan iboratdir.

SHu o'rinda iqtisodiy siyosatning avvalgi siyosiy iqtisoddan farqini anglab olish zarur. Siyosiy iqtisod endigi sharoitda yo'q, chunki davlatimizning siyosatida iqtisod siyosatdan ajratilgan. Aslida esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy iqtisod bor, xolos. Sababi-iqtisodiy siyosatning asosiy mohiyat va maqsadi ijtimoiy jabhalardir.

SHunday qilib, siyosatning turlari har xil; u ichki va tashqi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli yo'nalishlariga bag'ishlangan bo'ladi. Bu borada eng avvalo iqtisodiy, ijtimoiy, fan-texnika siyosatini ajratish mumkin. Iqtisodiy siyosat o'z navbatida sanoat, qishloq xo'jalagi, transport siyosatlariga, ijtimoiy siyosat esa aholi, uning takror barpo bo'lishi va migratsiya, demografik, turli yoshdagi kishilarga, oilaga bo'lgan davlatning rasmiy ravishda amalga oshirayotgan tadbirlaridan tashkil topadi. SHuningdek, ijtimoiy siyosat ta'lim-tarbiya, til, salomatlik, ekologik muammolar, kadrlarni tayyorlash masalalari ham o'z qamroviga oladi.

Ammo har qanday siyosatni, ayniqsa davlat ahamiyatiga mansub siyosatlarni mayda «siyosatchalarga» bo'lib yuborish yaxshi emas. To'g'ri, sanoatda, masalan yoqilg'i-energetika, qishloq xo'jaligida don mustaqilligi, transportda-ichki yagona transport yo'llari tizimini barpo etish singari masalalar muhim va dolzarb, binobarin, ular davlat siyosati doirasida ko'rinishi mumkin. Biroq, masalalarni yanada parchalab yuborish maqsadga muvofiq bo'lmasa kerak.

Xo'sh, chegara qaerda, qaysi darajada to'xtashi kerak? O'ylaymizki, bu masalaning mohiyati va murakkabligi, unga sarflanadigan vaqt, moddiy va moliyaviy harajatlar ko'lami bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, har qanday siyosat o'zining tarkibiy qismi va uni bosqichma-bosqich hal etish yo'llarini ifodalovchi maxsus dasturlarga ega bo'lishi shart.

Albatta, turli viloyat va tuman rahbarlarining, vazirliklarning o'zlariga tegishli masalalarga siyosatlari (aniqrog'i munosabatlari) bo'lishi muqarrar. Lekin bu toifadagi muammolarni davlat darajasidagi siyosat, deb yuritish nodurustdir.

Siyosat ma'lum maqsadga qaratilgan va shu bosh maqsadga erishish yo'lidagi muammo va «muammochalarni» hal etish, muayyan sohani takomillashtirib borish va uni tizim sifatida boshqarishni nazarda tutadi.

Biz avvalroq siyosatni (davlat siyosatini) ichki va tashqi siyosatga bo'linishini ta'kidlagan edik. Tashqi siyosat ham murakkab bo'lib, u o'z doirasiga xalqaro munosabatlar, geografik masalalar, iqtisodiy, madaniy, fan-texnika aloqalarini oladi. SHubhasiz, bularning ichida siyosiy masalalar, ya'ni «siyosiy siyosat» asosiy o'rinni egallaydi. CHunki, davlatlar orasida to'g'ri, osoyishtalik, hamdo'stlik munosabatlar o'rnatilgandagina, qolgan boshqa masalalarga yo'l ochiladi. Ana shu ma'noda, faqat ana shu sohada siyosatni iqtisoddan yuqori qo'yish mumkin, qolgan barcha hollarda, xususan mamlakat ichki hayotida iqtisod siyosatdan ustun va ustivordir. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, xalqaro (davlatlararo) siyosiy munosabatlar negizida xam iqtisodiy masalalar yotadi.

Ichki siyosat-bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tashkil etish va boshqarishdan iboratdir. U o'z navbatida sohaviy va hududiy bo'ladi. Sababi har qanday voqea yoki hodisa albatta qaerdadir, ma'lum bir makonda sodir bo'ladi. SHu ma'noda u yoki bu muammoni muayyan hudud, geografik muhitdan ajralgan holda, muallaq qarash noto'g'ridir.

Sohaviy siyosatlarga iqtisodiy, ijtimoiy, fan-texnika yo'nalishlari kiritiladi. O'z navbatida ularning ham pastroq va aniqroq darajadagi siyosatlarga bo'linishini ham aytib o'tgan edik. Hududiy siyosatlarga kelsak, u o'z mohiyatiga ko'ra murakkabroq, yuqoridagi barcha masalalarni qamrab oluvchi siyosatdir.

Biroq, «hududiy siyosat» tushunchasini to'g'ri tushunish kerak. Bu yerda sohaviy siyosatlarga o'xshab, u yoki bu tarmoqni rivojlantirish kabi masalalar hududni (geografik ma'noda) kengaytirish yo'nalishida qarash mutlaqo noto'g'ri va zararlidir. SHu bois mazkur tushunchani mintaqaviy siyosat shaklida talqin qilish ma'qulroqdir. Ammo bu tushunchaga ham geografiklar e'tiroz bildirishlari mumkin. Sababi geografiyada mintaqa(poyas) ma'lum bir tabiiy komponentlarni tasmasimon joylanishini anglatadi (masalan iqlim mintaqalari). Bizning iqtisodiy sohada bunday shakllar mavjud emas. Ana shularni e'tiborga olib, hududiy iqtisod yoki siyosat emas, balki mintaqaviy iqtisodiyot yoki mintaqaviy siyosat iboralarini qo'llash ma'qulroqdir.

SHunday qilib, mintaqaviy siyosat u yoki bu hududni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanish masalalariga qaratilgan bo'ladi. Bunday siyosatni esa maxsus, aniq maqsadga yo'naltirilgan dastur orqali amalga oshiriladi. Dasturda asosiy masala va uning ichki qismlari ochib beriladi, muammolarni yechimi paydar-pay, bosqichma-bosqich tasvirlanadi, tegishli moddiy, moliyaviy, tashkiliy masala va imkoniyatlar bilan asoslab beriladi. Xuddi shunday mintaqaviy dastur Namangan viloyati uchun qabul qilingan (1998-2000 yillar).

Mintaqaviy siyosatning ob'ekti turli xil bo'lishi mumkin. CHunonchi, davlatning ayrim hududlar-viloyat va tumanlar, shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalari yoki turli tabiiy geografik mintaqalarning (cho'l, tog' va tog' oldi rayonlar, daryo havzalari, Orol bo'yi mintaqasi va h.k) muammolarni yechish mintaqaviy siyosat doirasida boshqariladi.

Tabiiyki, hamma joyni bir vaqtning o'zida birday yuqori darajada rivojlantirish qiyin, buning uchun vaqt ham, moddiy-moliyaviy imkoniyatlar ham mavjud emas. Binobarin, mintaqaviy siyosat navbatma-navbat, alohida viloyat va shaharlar yoki geografik rayon doirasida olib boriladi. Boshqacha qilib aytganda, bu yerda ham ustivor, rivojlanishi mumkin va zarur bo'lgan hududlar ajratib olinadi va bor imkoniyatlar vaqtincha faqat aynan shu masalaga qaratiladi.

Nazorat savollari

5. Siyosat turlari haqida tushuncha bering?
6. Mintaqaviy siyosat deganda nimani tushinasiz?
7. Mintaqaviy siyosatning ob'ekti nima ?
8. Davlatning ichki va tashqi ahvoliga printsip va munosabatlari qanday?.
9. Iqtisodiy siyosatning asosiy mohiyat va maqsadi nimalardan iborat?

1-Mavzu test savollari

1. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy rivojlanishning pirovard natijalari, strategiyasi nima maqsadlarga yo'naltirilgan?
 - A) ijtimoiy (sotsial)*
 - B) iqtisodiy
 - C) siyosiy
 - D) iqtisodiy, siyosiy
2. Ijtimoiy siyosat qanday masalalarni o'z qamroviga oladi?
 - A) ta'lim-tarbiya,
 - B) salomatlik
 - C) ekologik muammolar
 - D) barcha javoblar to'g'ri*
3. Iqtisodiy siyosat qanday masalalarni o'z qamroviga oladi?
 - A) sanoat
 - B) qishloq xo'jaligi
 - C) transport
 - D) barcha javoblar to'g'ri*
4. Davlat siyosati asosan nechtaga bo'linadi?
 - A) 2 ga*
 - B) 3 ga
 - C) 4 ga
 - D) aniq soni yo'q
5. Xalqaro munosabatlar, geografik masalalar, iqtisodiy, madaniy, fan-texnika aloqalarini qaysi siyosat o'z ichiga oladi?
 - A) ijtimoiy siyosat
 - B) iqtisodiy siyosat
 - C) ichki siyosat
 - D) tashqi siyosat*
6. Ichki siyosat- bu...?
 - A) sanoat, qishloq xo'jaligi, transport masalalarini rivojlantirishdan iboratdir
 - B) mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tashkil etishdan va boshqarishdan iboratdir. *
 - C) mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini boshqarishdan iboratdir.
 - D) mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tashkil etishdan iboratdir
7. Sohaviy siyosatlarga qaysi yo'nalishlar kiritiladi?
 - A) ijtimoiy siyosat
 - B) iqtisodiy siyosat
 - C) fan-texnika
 - D) hamma javoblar to'g'ri*
8. Mintaqaviy siyosat qanday masalalarga qaratilgan bo'ladi?
 - A) u yoki bu hududni ijtimoiy rivojlanish masalalariga
 - B) u yoki bu hududni iqtisodiy rivojlanish masalalariga
 - C) A va B javoblar to'g'ri
 - D) hamma javoblar to'g'ri*
9. Mintaqaviy siyosatning tadqiqot ob'ektini belgilang?
 - A) geografik qobiq

- B) davlatlarning ayrim hududlari
- C) turli tabiiy geografik mintaqalar
- D) B va C javoblar to'g'ri*

10. Namangan viloyati uchun mintaqaviy dastur nechanchi yillar uchun qabul qilingan

- A) 2000-2002 yillar
- B) 1998-2000 yillar*
- C) 2002-2004 yillar
- D) 2004-2006 yillar

Mavzu 2. Mintaqa-murakkab tabiiy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tizim sifatida

Reja

1. Hudud, akvatoriya va aerotoriya tushunchalari
2. Mintaqa tushunchasiga turli yondashuvlar
3. Dunyoning turli mintaqalarga ajratilishi

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda XX asrning 50-yillaridan iqtisodiyotda mikro va makrotahlil bilan bir qatorda alohida ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-tarixiy tizim sifatida mamlakat hududlarini (mintaqalarini) o'rganish boshlandi. Natijada, iqtisodiy fanlar tizimida mustaqil «Mintaqaviy iqtisodiyot va boshqaruv» fani shakllandi va bugungi kunda ham izchil rivojlanib bormoqda.

Har bir fanda shu fanning tub mohiyatini ochib beruvchi tushuncha bo'ladi. Jumladan, biologiyada - xujayra, matematikada - son, fizikada - materiya va energiya, mintaqaviy iqtisodiyotda esa bunday tushuncha hudud va mintaqadir.

«Hudud» - yer sharining ma'lum bir qismi bo'lib, o'zining geografik holati va boshqa tabiiy belgilariga ko'ra boshqa hududlardan ajralib turadi. Hudud tushunchasini akvatoriya (er sharining suv bilan qoplangan bir qismi), aerotoriya (er shari atmosferasining bir qismi) kabi tushunchalar to'ldiradi. Ayni vaqtda hudud, akvatoriya va aerotoriya tushunchalari birgalikda geotoriya tushunchasini hosil qiladi. Hudud tushunchasining g'oyat murakkab va kattaligi uni mintaqalarga bo'lib, o'rganishni taqozo qiladi.

Mintaqa (region) - lotincha so'z bo'lib, ilmiy iste'molga ingliz tilidan kirib kelgan va 100 dan ortiq turli mazmunda talqin qilinishi bilan ajralib turadi.

Keyingi yillarda ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarda mintaqa tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-tarixiy, siyosiy-harbiy va ekologik tizim sifatida quyidagi: 1) dunyo xo'jaligi va umumbashariy muammolar, giosiyosiy va hududiy takror ishlab chiqarish; 2) megaiqtisodiyotda - makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy tahlil yondashuvlarida keng qo'llanilmoqda.

Dunyo xo'jaligi va umumbashariy muammolar yondashuvi-dunyo xo'jaligining tarixiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida o'zining umumiy ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-madaniy salohiyatiga ega mamlakatlar rivojlanishiga jiddiy ta'sir etuvchi, xalqaro siyosat, harbiy-siyosiy mojarolar, yoqilg'i-energetika, oziq-ovqat, demografik, ekologik va boshqa umumbashariy muammolar yechimlarini ishlab chiqishga intiluvchi iqtisodiy-siyosiy birlashmalar va ittifoqlar mavjudligiga asoslanadi. Jumladan, XX asrning oxirida Yevropada jiddiy milliy tizimlarni umumlashtirgan (moliya-kredit, yagona pul va boshq.) transmilliy mintaqa Yevropa Ittifoqining yuzaga kelishi, MDH, SHimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi va boshq. shakllanishi jarayoni davom etayotganligi e'tiborga molik.

Geosiyosiy yondashuv - hududiy jihatdan yaqin va chegaradosh mamlakatlar iqtisodiy integratsiya asosida umumiy bozor (bojxona, valyuta ittifoqlari va boshq.) tuzish uchun intiladilar. Masalan, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi, MDH doirasida Yevrosiy o iqtisodiy hamkorligi va boshq.

Hududiy takror ishlab chiqarish yondashuvi – mustaqil davlatlarning hududiy umumiyligini ifodalaydi hamda mintaqaning hududiy ishlab chiqarishini ikki xil talqin qilinadi. Birinchi talqin sof iqtisodiy-geografik yondashuv bo'lib, buning asosi hududiy mehnat taqsimotidan (tarmoq mehnat taqsimoti bilan) iborat bo'lib, iqtisodiy rayonlar deb ham yuritiladi.

Ikkinchi talqin takror ishlab chiqarish nuqtai-nazaridan, hudud uchun bir-birini to'ldiruvchi ishlab chiqarish-taqsimlash-ayrboshlash-iste'moldan iborat bosqichlarni o'z tarkibiga olgan yagona jarayon xos. Bu holatda bozor bog'lovchi vazifasini bajaradi va bir mintaqada doirasida (ishlab chiqarish va iste'mol) shuningdek, ishlab chiqarish bir mintaqada, iste'molchi esa ikkinchi mintaqada bo'lishi ham mumkin.

Megaiqtisodiyot – makromintaqaga uchun umumiy bo'lgan tabiiy sharoit va resurslar, mamalakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi, aholi hayotining sifat ko'rsatkichlari (turmush darajasi, aholi daromadlari, intellektual salohiyat), ijtimoiy taraqqiyot va gumanitar rivojlanganlik va umumbashariy muammolarni o'z tarkibiga olgan yaxlit hududga xos yondashuvlarni ifoda etadi.

Unitar davlatlar darajasida – ma'muriy-hududiy birlik sifatida (viloyat, viloyatlar guruhi Masalan, Farg'ona vodiysining O'zbekiston qismi - Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari yoki Janubiy mintaqaga – Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari, Janubiy Qirg'iziston – O'sh, Jalolobod, Botkent viloyatlari, SHimoliy Tojikiston – Tojikiston Respublikasi So'g'd viloyatining Farg'ona vodiysi qismi kabi va boshq.), federativ davlatlar darajasida yanada yaqqolroq, AQSHda shtatlar, Kanadada provintsiyalar, Germaniyada Federal yer, Rossiyada avtonom respublika, respublika, o'lka, avtonom viloyat, avtonom okrug, shuningdek, federal markazga qarashli shaharlar (Moskva, Sankt-Peterburg) yoki g'oyat yirik okrug (SHimoli-G'arbiy, Markaziy, Volga bo'yi, SHimoliy Kavkaz, Ural, Sibir va Uzoq SHarq).

Iqtisodiy-geografik rayon – mamlakatlarning bir yoki bir nechta ma'muriy-hududiy birliklarini umumlashtiruvchi hududlar, bu bir viloyat darajasida – Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo yoki bir nechta viloyatlar darajasida, ya'ni Farg'ona iqtisodiy rayoni (Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari), Toshkent iqtisodiy rayoni (Toshkent shahri va viloyati), Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni (Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshq.) kuzatiladi.

Yirik suveren davlat milliy-ma'muriy tuzilmalari (umumiy tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy-etnik va boshq. yaxlitlik xos hududlar), ya'ni, avtonom ruspublika, viloyat va okrug, shuningdek, alohida olingan joy, shahar, tumanlarga ham mintaqaga tushunchasini qo'llash va mikrotahlilni amalga oshirish mumkin.



1-rasm. O'zbekiston mintaqalari ierarxiyasi dunyo xo'jaligi tizimida

Bugungi, g'oyat murakkab va ko'p qutbli dunyo xo'jaligining rivojlanishida qutbli mintaqalar tushunchasi nafaqat yaxlit tabiiy-geografik hududlarga, balki ijtimoiy-iqtisodiy hamjamiyatlarga nisbatan ham qo'llanilmoqda. Chunki, turli bosqichdagi mintaqalar o'z navbatida mintaqalar tizimining quyi bosqichi yoki elementi hisoblanadi. Buni O'zbekiston misolida quyidagi mintaqalar ierarxiyasidan ham ko'rsa bo'ladi.

Demak, keng ko'lamda mintaqalar deganda, umumiy tabiiy-geografik, tarixiy, milliy-madaniy birlik va diniy-etnik yaqinlik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish (xo'jalik ixtisoslashuvi va iqtisodiy rivojlanish, demografik vaziyat, aholi turmush darajasi va boshq.) darajasi, turli bosqichda takomillashmagan boshqaruv tizimi hamda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni yechishdagi ma'muriy-hududiy organlar faoliyatining mushtarakligini taqozo qiluvchi yaxlit hududiy birlikni tushunish maqsadga muvofiq.

Dunyoning yirik makromintaqalarga bo'linishi – megaiqtisodiyot shu makromintaqalar uchun umumiy bo'lgan – tabiiy sharoit va resurslar, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, aholi hayotining sifat ko'rsatkichlari (turmush darajasi, aholi daromadlari, intellektual salohiyat), ijtimoiy taraqqiyot va gumanitar rivojlanish, mintaqaviy va umumbashariy muammolar va boshqa ko'rsatkichlar majmuasini o'zida mujassamlashtiradi.

Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda va amaliyotda dunyodagi mamlakatlarni turli tamoyillar asosidagi tipologik belgilarga bo'lib o'rganish nafaqat ilmiy, balki muhim amaliy yo'nalishga ham ega bo'lib, mavjud mamlakatlar joylashgan yirik mintaqalarning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, murakkab tabiiy-geografik va ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy va ekologik muammolar yechimlarini aniqlash imkonini beradi.

Dunyo quyidagi yirik makromintaqalarga: a) SHimoliy Amerika; b) Yevropa – G’arbiy Yevropa va SHarqiy Yevropa; v) MDH va Boltiq bo’yi mamlakatlari; g) Xorijiy Osiyo – Janubi-G’arbiy, Janubiy va Janubi-SHarqiy, Markaziy va SHarqiy Osiyo; d) Lotin Amerikasi – Meksika va Markaziy Amerika, Karib havzasi, SHimoli-SHarq va Braziliya, La-Plata; j) Afrika – SHimoliy, G’arbiy, Markaziy, SHarqiy va Janubiy Afrika; z) Avstraliya va Okeaniyaga bo’linadi.

Nazorat savollari

4. Hudud, akvatoriya va aerotoriya tushunchalarini izoxlab bering.
5. Mintaqa tushunchasiga qanday yondashuvlar mavjud?
6. Geosiyosiy yondashuvda mamlakatlar nimaga intiladilar?
7. Mikrotahlilni qanday mintaqalar orqali amalga oshirish mumkin?
8. Dunyoning turli mintaqalarga ajratilishda nimalarga e’tibor beriladi?

2-Mavzu test savollari

1. Nima sababdan «Mintaqaviy iqtisodiyot va boshqaruv» fani shakllandi va bugungi kunda ham izchil rivojlanib bormoqda?
 - A) ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-tarixiy tizim sifatida mamlakat hududlarini (mintaqalarini) o’rganishning boshlanishi natijasida.*
 - B) ayrim mintaqalarni kuchli rivojlanishi natijasida.
 - C) ayrim mintaqalarni sust rivojlanishi natijasida.
 - D) to’g’ri javob yo’q
2. «Hudud» - bu ...?
 - A) keng tushuncha bo’lib, butun yer shari nazarda tutiladi.
 - B) tor tushuncha bo’lib, yer sharining ayrim qismlari tushuniladi.
 - C) yer sharining ma’lum bir qismi
 - D) o’zining geografik holati va boshqa tabiiy belgilariga ko’ra boshqa hududlardan ajralib turadigan yer sharining ma’lum bir qismi.*
3. “Akvatoriya”- bu ... ?
 - A) keng tushuncha bo’lib, butun yer shari nazarda tutiladi.
 - B) yer sharining suv bilan qoplangan bir qismi*
 - C) yer sharining ma’lum bir qismi
 - D) yer shari atmosferasining bir qismi
4. “Aerotoriya” – bu ...?
 - A) yer sharining ma’lum bir qismi
 - B) yer sharining suv bilan qoplangan bir qismi
 - C) keng tushuncha bo’lib, butun yer shari nazarda tutiladi.
 - D) yer shari atmosferasining bir qismi*
5. Hudud, akvatoriya va aerotoriya tushunchalari birgalikda qaysi tushunchani hosil qiladi?
 - A) mintaqa
 - B) geotoriya*

- C) region
D) boshqaruv
6. Mintaqaning hududiy ishlab chiqarishini necha xil talqin qilinadi?
A) 3 xil
B) 2 xil*
C) 4 xil
D) 5 xil
7. Megaiqtisodiyot – nimalarni ifoda etadi?
A) mikromintaqa uchun umumiy bo'lgan tabiiy sharoit va resurslar, mamalakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi, aholi hayotining sifat ko'rsatkichlari (turmush darajasi, aholi daromadlari, intellektual salohiyat), ijtimoiy taraqqiyot va gumanitar rivojlanganlik va umumbashariy muammolarni o'z tarkibiga olgan yaxlit hududga xos yondashuvlarni ifoda etadi.
B) mintaqa uchun umumiy bo'lgan tabiiy sharoit va resurslar, mamalakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi, aholi hayotining sifat ko'rsatkichlari (turmush darajasi, aholi daromadlari, intellektual salohiyat), ijtimoiy taraqqiyot va gumanitar rivojlanganlik va umumbashariy muammolarni o'z tarkibiga olgan yaxlit hududga xos yondashuvlarni ifoda etadi.
C) makromintaqa uchun umumiy bo'lgan tabiiy sharoit va resurslar, mamalakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi, aholi hayotining sifat ko'rsatkichlari (turmush darajasi, aholi daromadlari, intellektual salohiyat), ijtimoiy taraqqiyot va gumanitar rivojlanganlik va umumbashariy muammolarni o'z tarkibiga olgan yaxlit hududga xos yondashuvlarni ifoda etadi.*
D) to'g'ri javob yo'q
8. Mamlakatlarning bir yoki bir nechta ma'muriy-hududiy birliklarini umumlashtiruvchi hududlar nima deb ataladi?
A) Iqtisodiy-geografik rayon*
B) tabiiy-geografik rayon
C) rayon
D) siyosiy-geografik rayon

Mavzu 3. Mintaqaviy siyosat asoslari

Reja

1. Mintaqaviy siyosatning o'rganish ob'ekti
2. Mintaqaviy siyosatning asosiy vazifasi
3. Mintaqaviy siyosatni amalga oshirish

Ma'lumki, har qanday siyosat, sub'ektning ob'ektga bo'lgan munosabatini bildiradi va u muayyan printsip (tamoyil) va metod (usul)lar majmuasidan tarkib topadi. Agar uni alohida shaxs yoki rahbar misolida emas, davlat darajasida ko'radigan bo'lsak, u holda siyosat, eng avvalo, ikki yo'nalishda bo'ladi. CHunonchi, davlatning tashqi siyosati—bu uning jahon hamjamiyatidagi boshqa suveren davlatlar bilan munosabati, jahon siyosiy xaritasi va

geotuzilmasidagi o'rnidir. Mazkur siyosat o'z mohiyatiga ko'ra an'anaviy, haqiqiy yoki «siyosiy siyosat» hisoblanadi va u bilan maxsus fan–siyosatshunoslik shug'ullanadi.

Mamlakatning ichki siyosati ham ikki xilda bo'ladi: sohaviy, ya'ni tarmoqlar va hududiy yoki integral. Birinchisiga ijtimoiy, iqtisodiy, fan-texnika, demografik kabi siyosatlar kiradi va ular ham o'z navbatida alohida qismlardan, «siyosatlardan» tashkil topadi. Masalan, iqtisodiy siyosatda mamlakatimizning yoqilg'i-energetika, oziq-ovqat va yo'l (transport) mustaqilligini ta'minlash, ijtimoiy siyosatda–aholini ijtimoiy muhofaza qilish, bandlik siyosati, yoshlar va qariyalarga davlatning munosabati, demografik siyosatda oila, aholining tabiiy va migratsiya harakati bilan bog'liq masalalarni ajratish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, tizim yoki sistemaning ichki jihati, ya'ni uning tarmoq yoki komponent hamda hududiy tomonlari borligidek, biz ko'rayotgan siyosatlar ham xuddi shunday xususiyatga ega. Zero har qanday hodisa yoki voqelik, albatta qaerdadir mavjuddir; rivojlanish, taraqqiyot ham faqat ma'lum davrdagina emas, balki muayyan hududda sodir bo'ladi.

SHu jihatdan yondoshganda, yuqorida keltirilgan sohaviy siyosatlar o'z navbatida hududiy taalluqlikka ega, ya'ni ular ham turli mintaqalarda turlicha amalga oshiriladi. Demak, biz bu yerda tarmoq va hududiy tizimlarning (siyosatlarning) o'zaro aloqadorligi va bir-birlariga o'tib turishini guvohi bo'lamiz.

Mintaqaviy siyosatning eng asosiy maqsadi mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududlararo darajasini mumkin qadar yaqinlashtirib berishdir. Ammo ko'zda tutilgan maqsadlarga eng avvalo iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri joylashtirish asosida erishiladi. Binobarin, har qanday mintaqaviy siyosat bu hududiy iqtisodiy siyosatdir, iqtisodiy siyosat esa keng ma'nodagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatdir.

Ma'lumki, mintaqaviy iqtisodiyot fani asosan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni o'rganadi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish esa mamlakat milliy iqtisodiyotining umumiy holati, strategik vazifalari bilan belgilanadi. Jumladan, o'tish davrining iqtisodiyoti bu davrni mumkin qadar tezroq va beshikast bosib o'tish, bozor iqtisodiyotining mustahkam ishlab chiqarish, huquqiy va ma'naviy asoslarini yaratishni talab qiladi.

O'tish davrida har qanday mamlakat eng avvalo iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlariga ustuvor ahamiyat qaratadi. Bu davrda ayniqsa energetika, don va yo'l mustaqilligini ta'minlash zarur. Aynan ana shu makroiqtisodiy muammolar O'zbekistonning hozirgi kuni uchun o'ta muhimdir.

Bozor munosabatlariga o'tish turli mamlakatlarda o'ziga xos bo'lib, barcha davlatlarga mos yagona andoza yo'q. Bu o'ta murakkab jarayon bo'lib, u nafaqat bevosita iqtisodiyot tizimining o'zi, balki ichki va tashqi vaziyat, ijtimoiy va ekologik holatning qulayligi, aholining yangi munosabatlarga tayyorligi, ma'naviyati va moslashuvi kabi omillarga ham bog'liq.

O'tish davri chindan ham oraliq davrdir; dialektik nuqtai nazardan bunday sharoitda yangilikning qiyinchilik bilan kirib kelishi, eskilikning ma'lum darajada saqlanib turishi, ular o'rtasidagi «kurash» bilan bir vaqtda sodir bo'ladi. Bu davrning yana boshqa murakkab jihati shundan iboratki, davlat ilgarigidek qat'iy va adresli rejalashtirishni tashkil etmaydi, chunki endi mulk faqat uning tasarrufida emas. Binobarin, bu davrda davlatning ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga bo'lgan munosabati keskin o'zgaradi, u bu jarayonga bevosita emas, ko'proq bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, ta'kidlash joizki, davlat o'z funktsiyasining shakli va mexanizmini o'zgartirgan holda har qanday sharoitda ham asosiy islohotchi, tashkilotchi bo'lib qolaveradi. Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mamlakatning bozor munosabatlariga o'tish davriga tegishli besh tamoyillaridan biridir.

Davlatning iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi roli, shuningdek, ayrim xo'jalik tarmoqlarining o'tish davrida bevosita uning qaramog'ida qolishi bilan asoslanadi. Bundan tashqari, faqat davlat strategik vazifalar, xalqaro munosabatlar va ichki mintaqaviy siyosatni amalga oshiradi. Ammo, shu bilan birga, o'tish davrida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishda ba'zi bir kamchiliklarga yo'l qo'yish xavfi tug'iladi. ***Ular quyidagilar bo'lishi mumkin:***

- *Hududlarga erkinlik berilishi ayni vaqtda ularning xo'jalik tizimini o'zicha, nazoratsiz rivojlanishi, mintaqaviy iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotga muvofiqlashmaslik xavfi;*
- *Hududiy mehnat taqsimotini yaxshi boshqarmaslik oqibatida mintaqalarda iqtisodiyot samaradorligining pasayishi;*
- *Ichki rayonlar va mintaqalararo iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanmasligi, turli darajadagi bozorlar shakllanishining qiyinlashuvi;*
- *Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarning saqlanib qolishi;*
- *Tabiiy resurslardan shoshma-shosharlik bilan noto'g'ri foydalanish, ekologik muammolarning yuzaga kelishi va keskinlashuvi;*
- *Ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishda nisbiy afzallik (D.Rikardo) qonunining buzilishi;*
- *Ishlab chiqarishning noto'g'ri regionlashuvi, eksport- import jarayonini amalga oshirishdagi ba'zi qiyinchiliklar va h.k.*

Tabiiyki, yuqoridagi kamchiliklar davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga salbiy ta'sir qiladi. Zero, to'g'ri boshqarilmagan va tashkil qilinmagan demokratiya beboshlikka olib kelishi mumkin. Xuddi shunday, hududlar rivojlanishi to'g'ri tartibga solinmasa, boshqarilmasa mintaqalarda erkin raqobat muhiti, ochiq iqtisodiy munosabatlar to'laqonli vujudga kelmaydi; bunday sharoitda «regional xudbinlik» alomatlarini paydo bo'lish ehtimoli saqlanib qoladi.

Demak, o'tish davri iqtisodiyoti, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va hududiy tashkil qilishining davlat tomonidan tartibga solib borilishi ob'ektiv qonuniyatdir. Ushbu vazifa eng avvalo davlatning mintaqaviy siyosati orqali amalga oshiriladi.

Mintaqaviy siyosatning zaruriyati bir vaqtning o'zida barcha hududlar iqtisodiyotini bir darajada rivojlantirib bo'lmazligidan kelib chiqadi. Binobarin, mintaqaviy siyosat rivojlanishi mumkin va mamlakat uchun muhim bo'lgan ustuvor yo'nalish va tarmoqlarga qaratiladi. SHu mazmunda u mintaqaviy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi, amaliy (konstruktiv) yo'nalishi hisoblanadi; mintaqaviy siyosat hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi vaziyatni dinamik holda muvofiqlashtirish va barqarorlashtirishga harakat qiladi.

Mintaqaviy siyosatning asosiy maqsadi quyidagilar:

- *Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni yumshatish va qisqartirish;*
- *Mahalliy tabiiy resurslardan foydalanish asosida mintaqaviy va milliy iqtisodiyotni rivojlantirish;*
- *Mintaqalar yordamida mamlakatning eksport salohiyatini ko'tarish, iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash;*
- *Joylardagi ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish;*
- *SHahar va qishloq aholi manzilgohlarini rivojlantirish, urbanizatsiya hamda migratsiya jarayonlarini tartibga solish va boshqarish;*
- *Ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri hududiy tashkil etish;*
- *Aholi bandligini yaxshilash va h.k.*

Yuqoridagi strategik maqsadlarga turli yo'llar yordamida erishiladi. Buning uchun avvalambor hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini mutloq ko'rinishida tenglashtirish g'oyasidan voz kechish talab qilinadi. SHuningdek, mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish, ochiq iqtisodiyot yuritish, qulay investitsiya muhitini yaratish lozim. Xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilgan holda o'zaro manfaatli qo'shma korxonalar qurish, turli yo'nalishdagi erkin iqtisodiy mintaqalarni shakllantirish hududlar rivojlanishiga katta turtki beradi.

Mintaqaviy siyosat alohida hududlarni tanlab olish asosida amalga oshiriladi, natijada iqtisodiy landshaft qutbiylashadi, o'sish qutb va markazlari vujudga keladi. Har xil omil va sharoitlarni atroflicha tahlil qilish va rivojlanish imkoniyatlarini baholash orqali saralab olingan u yoki bu hudud iqtisodiyoti yuksalgandan so'ng navbat mamlakatning boshqa hududiga o'tadi. Natijada, iqtisodiy rivojlanish ham hududiy tsikllik yoki davriylik, «geografik uzun to'lqinlar» xususiyatiga ega bo'ladi. SHu sababdan, ma'lum muddatda tanlangan hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga urg'u berilishi boshqa hududni kamsitish, imtiyozlarini cheklashni anglatmaydi. CHunki, keyinchalik bu hududga ham xuddi shunday e'tibor beriladi. Ammo mintaqaviy siyosat

hududlarning o'zlarini ham faolligini nazarda tutadi. SHuning uchun mahalliy hokimiyatning bu borada izlanuvchan, tadbirkor bo'lishi talab etiladi.

Mintaqaviy siyosat o'z mohiyatiga ko'ra tashqi siyosatdan (geosiyosatdan) farq qilib, u mamlakatning ichki ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Uning darajalari ham har xil. Masalan, mamlakat ichkarisiga nisbatan 2 darajadagi siyosat ajratiladi: davlatning mintaqaviy siyosati, ya'ni mamlakat hokimiyatining turli hududlarga (jumladan, viloyatlarga) nisbatan tutgan siyosati hamda mintaqalarning o'zini siyosati–viloyat hokimiyatining qishloq, tuman va shaharlar rivojlanishiga munosabati. Har qanday sharoitda ham ushbu siyosatni yurgazuvchi yuridik tashkilot respublika va viloyatlar hokimiyati hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni hududiy jihatdan yanada yuqoriroq yoki quyiyoq bosqichda ko'rish mumkin. CHunonchi, qishloq tumani hokimligining ham o'zining ichki siyosati bo'ladi. Ayni vaqtda davlat darajasidan yuqorida turgan davlatlararo mintaqaviy siyosat ham mavjud. Bunda mintqa sifatida alohida davlatlar yoki qo'shni mamlakatlarning tutash hududlari nazarda tutiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi miqyosida ana shunday mintaqaviy siyosat olib boriladi. Kelajakda xuddi shunday darajadagi mintaqaviy siyosat boshqa hududiy iqtisodiy ittifoqlar darajasida ham qo'llanilishi mumkin.

Sobiq Ittifoq davrida O'zbekistonda mintaqaviy siyosat amalda yo'q edi. Ba'zi hududlarning jadalroq rivojlanishi ko'proq «Butunittifoq» manfaatlarini ko'zlab olib borilardi. Jumladan, Mirzacho'l yoki qarshi dashtlarini o'zlashtirib, paxtachilikni yanada rivojlantirish, Buxoro, qashqadaryo tabiiy gaz, Navoiy viloyati oltin konlarini qazib olish aynan shu maqsadda bajarilgan.

SHu bilan birga ta'kidlash lozimki, mintaqaviy siyosatga tegishli ilmiy tadqiqotlar ilgari ham olib borilgan. Sobiq Ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish bo'yicha Kengash (SOPS) Respublika hududlar imkoniyatlarini atroflicha tadqiq qilish, hududiy ishlab chiqarish majmualarini shakllantirish kontseptsiyalarini yaratgan. Dastavval Farg'ona vodiysi, so'ngra Buxoro-Navoiy, Angren-Olmaliq, qashqadaryo va quyi Amudaryo mintaqalari maxsus o'rganilib, bu hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning Bosh sxemalari tuzilgan. Olib borilgan ishlar natijasida o'sha davrda Ittifoqda mashhur bo'lgan ***mintaqalar kompleks muammolarini o'rganish*** ilmiy yo'nalishi shakllangan.

Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash davrida mintaqaviy siyosatning amaliy ahamiyati yanada kuchaymoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha makroiqtisodiy barqarorlik 1996 yildan beri kuzatilmoqda; ba'zi viloyatlar, masalan, Andijon, Buxoro, Xorazm va boshqalar sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Ayni vaqtda iqtisodiy salohiyati katta bo'lgan hududlar (Farg'ona, Samarqand, Navoiy viloyatlari) bu barqarorlikka kechroq erishishdi.

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda Asaka va Samarqand avtomobilsozlik, qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodlari, ko'pgina viloyatlarda qurilgan to'qimachilik korxonalari va boshqalarning ahamiyati katta. Ammo, barcha qo'shma korxonalar ham samarali faoliyat ko'rsatishmayapti. Jumladan, mustaqillik yillarida barpo etilgan o'ndan ortiq to'qimachilik korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash muhim masala hisoblanadi.

Sanoatning boshqa tarmoqlaridagi vaziyat ham bir xil emas: chunonchi, Navoiy, Zarafshon, Olmaliq tog'-metallurgiya kombinatlarida mahsulot ishlab chiqarish samarali, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi ham chet el sarmoyalari bilan qayta jihozlangandan so'ng mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. SHuningdek, Surxondaryoda Xo'jakon osh tuzi, Gulistonda farmatsevtika, SHo'rtan va Muborakda gaz- kimyo majmualari, qo'ng'irotda soda zavodi kabi qator yangi korxonalar qurilib, respublikaning turli rayonlarida joylashtirilmoqda.

qishloq xo'jalik sohasida ham strukturaviy (tarkibiy) o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, paxta maydonlarini qisman qisqartirish asosida g'allachilikka katta e'tibor berilmoqda. Bu esa qishloq xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishda o'zgartirishlarga olib kelmoqda. Ammo, eslatish lozimki, agrosahada hozircha qator muammolar mavjud; ba'zi yillari ob-havoning noqulay kelishi tufayli bug'doy, sholi, paxta hosilining kamayishi ham uchrab turadi. Uning ustiga, tuproqning

ikkilamchi sho'rlanishi natijasida anchagina ekin maydonlari qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib qolmoqda. Mazkur holat agrosanoat majmui, qayta ishlash sanoatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Transport sohasidagi o'zgarishlar ham mintaqaviy va yo'l mustaqilligini ta'minlash siyosati doirasida olib borilmoqda. Jumladan, /uzor-Boysun-qumqo'rg'on, Uchquduq-Nukus temir yo'llari hamda Angren-Pop avtomobil yo'llarining qurilishi va kengaytirilishi mamlakat xo'jaligining hududiy tarkibida ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

Respublika rahbariyati ayniqsa qishloq joylarga katta e'tibor qaratmoqda-ki, bu ham bo'lsa mintaqaviy siyosatning o'ziga xos bir ko'rinishidir. Darhaqiqat, modomiki mamlakat iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi, aholisining 2/3 qismining ko'prog'i qishloqlarda yashar ekan, bu joylarda jiddiy o'zgarishlarga erishmay turib strategik vazifalarni hal etib bo'lmaydi. SHuning uchun qishloq joylarga sanoatni olib kirish, qishloq infrastrukturasini rivojlantirish, mehnat resurslari bandligini va aholi turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish eng muhim muammolardan sanaladi.

Albatta, bundan boshqa muammolar ham mavjud. CHunonchi, ilgari hududiy mehnat taqsimoti, gorizontal iqtisodiy aloqalar buzilganligi oqibatida ko'pgina og'ir sanoat korxonalari faoliyati yaxshi emas, mamlakat ishlab chiqarish salohiyatining anchagina qismi mujassamlashgan avvalgi yirik sanoat markazlarining (CHirchiq, Angren, Marg'ilon, Bekobod va b.) rivojlanishi sustroq. Ayni chog'da ichki mehnat taqsimoti keng ko'lamda yo'lga qo'yilmagan, ishlab chiqarishni noto'g'ri hududiy tashkil etilganligi sababli turli mintaqalarda ijtimoiy va ekologik muammolar biroz keskinlashgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mintaqaviy siyosat turli hududlarda turlicha olib boriladi: ba'zi iqtisodiy rivojlanishi to'xtab qolgan yoki sekinlashgan (masalan, Angren-Olmaliq sanoat rayoni) depressiv rayonlar xo'jaligi harakatga keltirilishi, aholisi zich agrosanoat rayonlarda (Farg'ona vodiysi) ish o'rinlarini ko'paytirish, ekologik tanglik vujudga kelgan Orol bo'yi kabi rayonlarda esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni to'g'ri tashkil qilish talab qilinadi.

SHunday qilib, mintaqaviy siyosatni amalga oshirish ishlab chiqarish kuchlarini u yoki bu hududda ustuvor rivojlantirish demakdir. Binobarin, mazkur siyosatning zaminida sanoat, qishloq xo'jaligi, aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarini joylashtirish yotadi, chunki **joylashtirish rivojlantirishning hududiy tomoni, in'ikosidir.**

Respublika milliy iqtisodiyoti to'la va mustahkam shakllanib borgan sari uning mintaqaviy siyosati nafaqat viloyatlarga, balki boshqa «muammoli» rayonlarga ham qaratiladi. Jumladan, hozirgi kunda Orolbo'yi mintaqasining ekologik holatini yaxshilash, bu katta hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Kelajakda alohida daryo havzalari, voha va vodiylar, tog' yoki cho'l hududlari ham davlatning mintaqaviy siyosatini ob'ekti sifatida ko'rilishi mumkin.

Sobiq Ittifoq parchalanib, yangi mustaqil mamlakatlar paydo bo'lishi bilan ilgari chegaralar davlat chegarasiga aylanib qoldi. SHu munosabat bilan chegaraga yaqin yoki o'ziga xos geografik o'ringa ega bo'lgan qishloq tumanlari (masalan, So'x, Farg'ona, Bo'stonliq, Olot, Urgut, qo'rg'ontepa, SHovot, Sariosiyo va b.) ham viloyat va mamlakatning mintaqaviy siyosatida alohida e'tiborga ega bo'ladi.

Xullas, mintaqaviy siyosat ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishda navbatma-navbatchilikni, «erkin hududiy raqobat va musobaqani» nazarda tutadi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy makoni va tarmoqlar tarkibida doimiy o'zgarishlar bilan birga sodir bo'ladigan dialektik jarayondir.

Nazorat savollari

4. Mintaqaviy siyosatning asosiy vazifasi nimalardan iborat?
5. Mintaqaviy siyosatni amalga oshirish qanday amalga oshiriladi?
6. O'tish davrida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishda qanday kamchiliklarga yo'l qo'yish xavfi tug'iladi?
7. Mintaqaviy siyosatning zaruriyati qachon va qay darajada kelib chiqadi?

8. Mintaqaviy siyosat o'z mohiyatiga nimaga yo'naltirilgan bo'ladi?

3-Mavzu test savollari

1. Mamlakatning ichki siyosati ikki xilda bo'lib, ular qaysilar?
 - A) mintaqaviy va tabiiy
 - B) iqtisodiy va mintaqaviy
 - C) sohaviy va hududiy*
 - D) sohaviy va mintaqaviy
2. Demografik siyosatda nima bilan bog'liq masalalar o'rganiladi?
 - A) oila bilan
 - B) aholining tabiiy harakati bilan
 - C) aholining migratsiya harakati bilan
 - D) barcha javoblar to'g'ri*
3. Mintaqaviy siyosatning eng asosiy maqsadi nima?
 - A) mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududlararo darajasini mumkin qadar yaqinlashtirib berishdir*
 - B) mamlakat ichidagi iqtisodiy rivojlanishning hududlararo darajasini mumkin qadar yaqinlashtirib berishdir
 - C) mamlakat ichidagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning hududlararo darajasini mumkin qadar yaqinlashtirib berishdir
 - D) barcha javoblar to'g'ri
4. O'tish davrida har qanday mamlakat eng avvalo qaysi asosiy yo'nalishga ustuvor ahamiyat qaratadi?
 - A) iqtisodiyotning *
 - B) siyosatning
 - C) tashqi siyosatning
 - D) ichki siyosatning
5. Mintaqaviy siyosat o'z mohiyatiga ko'ra tashqi siyosatdan nimasi bilan farq qiladi?
 - A) u mamlakatning tashqi ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'ladi.
 - B) u mamlakatning ichki ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'ladi.*
 - C) u ma'lum mintaqaning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'ladi.
 - D) hamma javoblar to'g'ri
6. Mintaqaviy siyosatning mamlakat ichkarisiga nisbatan 2 darajadagi siyosati ajratilib, ular qaysilar?
 - A) mamlakat hokimiyatining turli hududlarga (jumladan, viloyatlarga) nisbatan tutgan siyosati hamda mintaqalarning o'zini siyosati–viloyat hokimiyatining qishloq, tuman va shaharlar rivojlanishiga munosabati*
 - B) mintaqaning turli hududlarga nisbatan tutgan siyosati hamda mintaqalarning o'zini siyosati
 - C) mamlakatlarning turli hududlarga nisbatan tutgan siyosati hamda mintaqalarning o'zini siyosati mintaqaning
 - D) B va C javoblar to'g'ri

7. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha makroiqtisodiy barqarorlik 1996 yildan beri kuzatilmoqda?

- A) 1996 yildan beri *
- B) 1997 yildan beri
- C) 1998 yildan beri
- D) 1999 yildan beri

8. O'zbekistondagi qaysi mintaqa mintaqaviy siyosatning bugungi kundagi dolzarb obyekti xisoblanadi?

- A) Toshkent mintaqasi
- B) Farg'ona mintaqasi
- C) Surxondaryo mintaqasi
- D) Orolbo'yi mintaqasi*

Mavzu 4. Geosiyosat va mintaqaviy siyosat

Reja

1. Geosiyosat tushunchasi.
2. Geosiyosat va siyosiy geografiya.
3. Geosiyosatni mintaqaviy siyosatdan farqi.

Tashqi siyosat turli yo'nalishlardan iborat. U, avvalambor, boshqa davlatlar bilan tinch-totuv yashash, iqtisodiy, madaniy, fan-texnika, global ekologik muammolarni hal qilishdagi xalqaro aloqalarni o'z ichiga oladi.

Tashqi siyosatning bir ko'rinishi—geografik siyosat, ya'ni geosiyosatdir. Bu siyosatning mazmunini ham ikki xil talqin qilish mumkin: avvalgi reaksion ma'noda va hozirgi to'g'ri mazmunda. Birinchisi, ko'proq /arb mamlakatlarida alohida oqim sifatida, asosan nemis, ingliz va shved olimlari (Fridrix Rattsel, Rudolf CHellen, Karl Xausxafer, Alfrid Mexen, Xelford Makkinder va b.) tomonidan yaratilgan bo'lib, u o'ta reaksion, o'zga davlatlar va millatlarni kamsitish, ularning hududlariga tahdid-tajovuz qilish, bosib olishni anglatadi. Aytish joizki, aynan ana shunday geosiyosat mamlakatlar o'rtasidagi nizolar, jangu-jadallarga sababchi bo'lgan: nemis fashizmining Ikkinchi Jahon urushini boshlashi ham g'oyaviy jihatdan reaksion geosiyosatga asoslangan edi.

Geosiyosat, ya'ni geografik siyosat (geo-er, hudud) tashqaridan qaraganda hududiy, mintaqaviy siyosatning o'zginasi. Biroq bunday emas, uning kelib chiqishi, tarixiy ildizi ancha chuqur va uzoq, uni talqin etish ham oson emas. Sababi-geosiyosat dastavval Yevropa mamlakatlarida, hususan Germaniya va SHvetsiyada rivojlangan.

Darhaqiqat Germaniya jahon arenasiga Buyuk Britaniya va Frantsiya, hatto Italiya, Ispaniya, Portugaliya va Rossiyadan ham kechikib kirdi. Uning, aytilgan davlatlar singari koloniyali, mustamlaka va qaram yerlari yo'q, ammo nisbatan kichik hududda xalqi, aholisi eng ko'p edi (Olmoniya - «oll»-ko'p, «men»-odam, ya'ni ko'p odam ma'nosini anglatasa ajab emas). Binobarin, nemis xalqida azal-azaldan yashash makoni, geografik muhitni kengaytirish kayfiyati turar edi. Kengaytirish esa faqat o'zgalar, qo'shni davlatlar hisobidan amalga oshirish mumkin. Ehtimol, shuning uchun bo'lsa kerak, birinchi va ikkinchi jahon urushini boshlagan ham aynan Germaniya bo'ldi, hozirgi kunda esa Germaniya Yevropa Ittifoqining yetakchi mamlakati hisoblanadi.

Aytish joizki, geopolitik kayfiyat ma'lum ma'noda shu kunlarda ham Germaniya rahbariyatida sezilib turadi. Masalan, G.Koll bir vaqtlar aytgan edi: «Men Germaniyani (ya'ni

SHarqiy va G'arbiy Germaniyani) birlashtirdim, Germaniya esa Yevropani birlashtirishi kerak». CHindan ham Germaniyani butun jahon hamjamiyatida, uning siyosiy rivojida obro'si katta; u hozirgi kunda Yevropa yagona iqtisodiy makonini, valyutasini tashkil etishda ham faol harakat qilmoqda. Qolaversa 90-yillar boshida «9+1» teledasturi ham Germaniyaning geosiyosiy mavqeini ma'lum darajada ochib berardi.

Er yuzining turli qismlarida mavjud bo'lgan hududiy kelishmovchiliklar asosida turli davlatlarning birinchi yo'nalishdagi geosiyosati yotadi. Masalan, yaqinda sobiq Yugoslaviya hududidagi janjallar, Isroil-Falastin munosabati, Panjob va Kashmir, Tog'li qorabog', CHEcheniston kabi juda ko'p muammoli hududlar shular jumlasidandir.

Geosiyosatning hozirgi zamon, to'g'ri ma'nosi u yoki bu davlatning jahonning boshqa mamlakatlari, eng avvalo qo'shni davlatlar bilan tinch-totuv yashash, ular bilan turli sohalarda hamkorlik qilishni bildiradi. SHuningdek, bu yerda mamlakatning jahon okeaniga va bozoriga arzon, qulay, beg'araz va bexatar yo'llar orqali chiqishi ham nazarda tutiladi. Aynan shu ma'nodagi geosiyosat respublikamiz Prezidenti I.Karimov tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu haqda Prezidentning ko'pgina asarlari va, xususan, uning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» (T.: O'zbekiston, 1997) kitobi katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur asarda geosiyosat bilan birgalikda geostrategiya masalalariga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, u asosan Yer yuzining turli qismlarini, jumladan O'rta Osiyo va qozog'iston mintaqasining jahon iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rnini, geografik mavqeini anglatadi.

Demak, qat'iy va uzil-kesil, bir ma'noda kelishib olish kerak: hozirgi geosiyosat bu avvalgi hududiy siyosatdan tubdan farq qiladi va u davlatlarning tashqi munosabatini bildiradi. Bunday siyosat o'z navbatida turli tarmoq-soha siyosatlaridan tashkil topadi.

Mamlakatning geografik mazmundagi ichki siyosatini mintaqaviy siyosat shaklida qabul qilgan ma'qulroq. Garchi «geo»-er, hudud, mintaqa atamasiga to'g'ri kelsada, uning aynan shu ko'rinishi to'g'riroqdir. Sababi-davlatning bunday siyosatini hududiy siyosat darajasida talqin qilish ba'zan kishilar ongiga singib qolgan tushunmovchiliklarga, noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatining alohida, mustaqil mamlakati maqomida, boshqa davlatlarning ham suverenligini e'tirof etadi, ularning hudud va chegaralarini dahlsizligini hurmat qiladi. Ayni vaqtda u o'zining yagona geosiyosiy tizim, makon sifatida yaxlitligini har qanday yovuzlardan himoya etadi va o'zgalar tomonidan hurmat qilinishini talab qiladi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, mamlakat geotizimining mustahkamligi, faolligi eng avvalo uning ichki qismlarining o'zaro aloqalari, ma'muriy-hududiy tuzilmasining to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liq. Ichki barqarorlik har qanday tizim-sistemaning mustaqil faoliyat ko'rsatishini, boshqalardan o'zini saqlash qobiliyatining garovidir. SHu nuqtai nazardan mamlakat ichida hududiy mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish, rayon va viloyatlar orasida sog'lom raqobat muhiti, faol iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlantirish, yagona geoiqtisodiy makonni vujudga keltirish va uni mustahkamlash, turli hududiy bosqichdagi bozorlarni (mahalliy, mintaqaviy, mintaqalararo, milliy bozor) shakllantirish O'zbekiston Respublikasining hozirgi o'tish davridagi nihoyatda dolzarb vazifalaridir. CHunki, tizim-tarkib (sistema-struktura) qoidasiga muvofiq, butun alohida qismlardan tashkil topadi, qismlar, ya'ni mintaqalar esa butunlik, mamlakat geosiyosiy va geoiqtisodiy yaxlitligini ta'minlaydi. Biz geografik siyosat tarixining uzoqligini ta'kidladik. Xo'sh, u qachon va nima sababdan vujudga kelgan? Geosiyosatning nazariy asosi XVIII-XIX Germaniya va Frantsiyada shakllangan determinizm g'oyalariga, Monteskye, Fridrix Fon Rattsel, Yuxan CHellen asarlariga borib taqaladi. Ma'lumki, geografik determinizm (dete-ta'sir, belgilash, aniqlash ma'nosini bildiradi) jamiyat taraqqiyoti, mamlakat va hatto kishilar rivojida geografik omillarning, xususan iqlim sharoiti, geografik o'rinning ta'sirini anglatadi. Bu ta'sir ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Ammo hamma gap shundaki, bu muammoga o'sha tarixiy davrlarda o'ziga xos qarash mavjud bo'lgan, ya'ni geografik omilning rolini haddan tashqari bo'rttirib yuborilgan (geografik fatalizm) yoki uni butunlay inkor qilgan (geografik nigilizm).

Ilmiy dunyoqarash nuqtai nazaridan yondashganda, albatta, hech bir narsa o'zidan-o'zi sodir bo'lmaydi, uni keltirib chiqaruvchi sabablar, shart-sharoitlar mavjud bo'ladi. Ularning ichida geografik omillar ham bor (bu o'rinda ta'kidlash lozimki, determinizm faqatgina geografik bo'lmay, u tarixiy, biologik, siyosiy va h.k bo'lishi mumkin). Biroq bu ta'sirni birdan-bir, hal qiluvchi omil sifatida qarash ham noto'g'ridir.

Ana shunday qarash, afsuski, ko'p mamlakatlarda avj olingan edi. Keyinchalik geografik determinizm iqtisodiyot, psixologiya, sotsiologiyadan siyosatga ko'chdi, unga siyosatning qo'shilishi natijasida geografik siyosat vujudga keldi.

Dastavval geosiyosat tushunchasini shved sotsiologi Yuxan CHellen qo'lladi. Ammo ushbu yo'nalishning asoschisi nemis sotsiologi va geografi Rettsel hisoblanadi. U kishi siyosiy geografiyaga ham asos solgan.

Umuman olganda, geografik siyosatni faqat salbiy talqin qilish nojoizdir. Chunki, iqtisodiy, fan-texnika siyosatlari kabi geosiyosat ham bo'lishi mumkin. Biroq, uni faqat reaksion ruhda tahlil va targ'ib etish noto'g'ridir. Afsuski, huddi ana shunday maqomda geosiyosat ko'pchilikka ma'lum edi. Albatta, buning qator sabablari bor. Bu o'rinda avvalo Adol'f Gitlarning Germaniya davlat hududini kattalashtirish, «oqsuyak» nemis millati uchun «yashash muhitini» kengaytirish bilan bog'liq harbiy- siyosiy faoliyatini ta'kidlash zarur. Ana shuning uchun bo'lsa kerak, «geosiyosat» deganda kishilar ko'z o'ngida eng avvalo Gitler nomi va siyosati gavalangan va nemis fashizmi, uning tajovuzkor g'oyasi bilan geosiyosat uyg'unlashib ketgan.

Aslida olganda, ushbu tushunchani oddiy, to'g'ri, beg'araz jihatlar ham bor. Aynan ana shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov o'zining «XXI a'nd a'ndag'a'ndaa» kitobida geosiyosat, geografiya to'g'risida juda ko'p fikr bildirgan. Bu yerda, avvalambor respublikamiz-mustaqil davlatimizning jahon siyosiy xaritasida, hamjamiyatida tutgan o'rni, boshqa davlatlar bilan aloqalari va, xususan, jahon okeaniga bozoriga qisqa, bexatar, arzon va beg'araz, beminnat chiqish imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.

Demak, geosiyosat, bizning tushunchamizda, boshqa davlatlarning mustaqilligi, chegara va hududlarini tan olgan va hurmat qilgan holda olib borilishi kerak. Ko'rinib turibdiki, bunday siyosat o'zining mohiyatiga ko'ra tashqi siyosatdir, mintaqaviy siyosat esa mamlakatning ichki siyosati hisoblanadi.

Geosiyosat va siyosiy geografiya o'rtasida ham farq bor. Avvalambor, geosiyosat – bu yo'nalish, siyosiy geografiya esa fandir. U jahon hamjamiyatining tarkibini, turli mamlakatlarning siyosiy tuzumi, siyosiy kuch va partiyalar, harakatlarning hududiy tarkibi, davlatlararo harbiy-siyosiy tashkilotlar kabi masalalarni o'rganadi. Qisqacha qilib aytganda, siyosiy geografiyada «ega» tushuncha siyosat bo'lsa, geosiyosatda –geografiyadir. Xuddi avvalgi siyosiy iqtisod bilan siyosat bir xil bo'lmaganidek, geosiyosat bilan siyosiy geografiya ham mutlaqo boshqa tushunchadir.

SHunday qilib, xulosa sifatida yana bir bor ta'kidlash lozimki, «geosiyosat» tushunchasini an'anaviy, salbiy ma'nodagina emas, uni to'g'ri, ijobiy ruhda ham talqin qilish kerak. Ikkinchidan, geosiyosat mintaqaviy siyosatdan farq qilib, u davlatning tashqi siyosatini nazarda tutadi.

Nazorat savollari

4. Geosiyosat tushunchasini izoxlang.
5. Geosiyosat va siyosiy geografiya bir-biidan nimasi bilan farq qiladi?
6. O'zbekistonda geosiyosatga qanday yondashiladi?
7. Geosiyosatni mintaqaviy siyosatdan farqi nima?
8. Mintaqaviy siyosat mamlakat iqtisodiy geografik xolatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

4-Mavzu test savollari

1. Geografik siyosat, ya'ni geosiyosat – bu ...?

- A) Tashqi siyosatning bir ko'rinishi*
- B) Ichki siyosatning bir ko'rinishi
- C) Ichki va Tashqi siyosatning bir ko'rinishi
- D) To'g'ri javob yo'q.

2. Geosiyosat dastavval qayerda rivojlangan?

- A) Yevropa mamlakatlarida, hususan Fransiya va Shvetsariya rivojlangan
- B) Yevropa mamlakatlarida, hususan Germaniya va SHvetsiyada rivojlangan*
- C) Yevropa mamlakatlarida, hususan Fransiya va Germaniyada rivojlangan
- D) Yevropa mamlakatlarida, hususan Germaniya va Fransiya rivojlangan

3. «Men Germaniyani (ya'ni SHarqiy va G'arbiy Germaniyani) birlashtirdim, Germaniya esa Yevropani birlashtirishi kerak» degan fikrning muallifini toping?

- A) G.Koll*
- B) A.Gitler
- C) A.Вебер
- D) В.Кристаллер

4. Prezidentimizning qaysi asarida geosiyosat bilan birgalikda geostrategiya masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan?

- A) «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch»
- B) «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari»*
- C) «Bizdan ozod va obod vatan qolsin»
- D) «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida»

5. Geosiyosatning nazariy asosi nechanchi asrlarga borib taqaladi?

- A) XVIII-XIX *
- B) XIX-XX
- C) XVII- XVIII
- D) XVI- XVII

6. Geografik determinizm so'zining lug'aviy ma'nosini aniqlang?

- A) dete- qamrab olish ma'nosini bildiradi
- B) dete-o'rganish, fikrlash ma'nosini bildiradi
- C) dete-egallash, egalik qilish ma'nosini bildiradi
- D) dete-ta'sir, belgilash, aniqlash ma'nosini bildiradi *

7. Geografik omilning rolini haddan tashqari bo'rttirib yuborish nima deb ataladi?

- A) geografik determinizm
- B) geografik fatalizm*
- C) geografik nigilizm
- D) geografik siyosat

8. Geografik omilning rolini butunlay inkor qilish nima deb ataladi?

- A) geografik determinizm

- B) geografik fatalizm
- C) geografik nigilizm*
- D) geografik siyosat

9. Dastavval geosiyosat tushunchasini kim qo'llagan?

- A) Yuxan CHellen *
- B) Monteskye,
- C) Fridrix Fon Ratsel
- D) G.Koll

10. Geosiyosat fanining asoschisi kim?

- A) Yuxan CHellen
- B) Monteskye,
- C) Fridrix Fon Ratsel *
- D) G.Koll

Mavzu 5. Iqtisodiy rayonlashtirish va mintaqaviy siyosat.

Reja

1. Rayon geografiyaning birlamchi va o'zak tushunchasi.
2. Mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishi va iqtisodiy rayonlar
3. Iqtisodiy rayonlar mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning ob'ekti, nazariy asosi
4. Hududlarni kompleks rivojlantirishda iqtisodiy rayonlashtirishning o'rni

Barcha fanlarda bo'lganidek, geografiyaning ham birlamchi, o'zak tushunchasi mavjudki, usiz bu fan to'g'risida so'z yuritish aslo mumkin emas. Agar tarix fani uchun davr, biologiya uchun xujayra, ximiyada atom tushunchalari ushbu fanlar uchun eng muhim hisoblansa, geografiyada bunday vazifani rayon tushunchasi o'taydi.

«Rayon» so'zi frantsuz tilidan olingan bo'lsada (ingliz tilida u region deb ham yuritiladi), u hozirgi kunda xalqaro, ya'ni baynalminal mazmunga ega. Binobarin, uni respublika, parlament, konstitutsiya, landshaft kabi so'zlar qatori bema'lol ishlatish mumkin va katta hatolik bo'lmaydi. Xususan, mazkur tushunchani aynan shu shaklda sof geografik birliklar ma'nosida qo'llash kerak. Sababi – uning ma'muriy hududlarga tegishli bo'lgan «nohiya» yoki «tuman» ko'rinishga o'girish balkim to'g'ridir, biroq haqiqiy geografik rayonni, rayonlashtirishni geografik tuman, tumanlashtirish shaklida tadbqiq etish o'ta kulgili va noo'rindir.

Xo'sh, rayon, shu jumladan iqtisodiy rayon nima va u qaysi maqsadlarda zarur? Ma'ruzamizning tub mohiyati ham ana shunda. Rayon, agar o'ta qisqa va ommabop (hammabop, geograflar uchungina emas, balki barcha savodxon, oddiy hududiy fikrlash va geografik madaniyatli kishilar uchun) darajada ta'riflamoqchi bo'lsak, uni umumiy o'xshash xususiyatlari bilan o'z atrofidan ajralib turuvchi hududning bir qismi sifatida talqin qilish mumkin. Demak, rayon – bu hudud (yoki nisbatan kattaroq hududning bir bo'lagi), hudud – zamin, yer yuzi esa «geo» - dir. Binobarin, rayonni albatta «geografik rayon» deyishga hech ehtiyoj yo'q, zero, nogeografik rayonning o'zi bo'lmaydi. Ayniqsa bunday iborani qo'llash geograflar uchun nojoizdir. SHunday qilib, har qanday rayon (xoh u tabiiy bo'lsin, xoh iqtisodiy)- u geografik rayondir va bu yerda ortiqcha so'zga zaruriyat yo'qligi hammaga ayon va ravshan bo'lmog'i darkor. Masalan, Farg'ona iqtisodiy rayonini oladigan bo'lsak, bu yerda «Farg'ona» ham, «rayon» ham ma'lum hudud, ya'ni geografik ma'noni anglatadi. SHu bois, uni «Farg'ona iqtisodiy geografik rayoni» shaklida talqin qilish hech shart bo'lmasa kerak.

Rayon tushunchasi va uning mazmun-mohiyati hozirgi zamon tizim-tarkib (sistema-struktura) printsipligiga yoki ilmiy dunyoqarash yondashuviga ham mos keladi. Chunki, rayon o'z navbatida rayonchalardan, ular esa yana nisbatan kichikroq xududiy birliklardan tashkil topadi (huddi «matryoshka» o'yinchog'idek), ya'ni rayon bu ko'p bosqichli, pog'pnasimon tushunchadir. Huddi shunday, ma'lum bir hududiy sistema o'z tarkibiga-sistemachaga ega, bu esa o'zidan keyingi pog'onaga nisbatan sistemadir. Boshqacha qilib aytganda, har qanday hududiy birlik, agar u ochiq sistema shaklida ko'rilsa, o'zidan kattaroq hududga nisbatan tarkib (sistemacha, kichikroq sistema) va, ayni paytda, o'zining ichki tuzilishi nuqtai nazaridan yaxlit sistemadir. Yuqorida keltirilgan misol –Farg'ona iqtisodiy rayoni mustaqil O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyoti tizimida tarkibiy birlikdir. SHu bilan birga u alohida Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlari (tizim-tarkib)- lardan tashkil topadi. SHunga o'xshash mazkur viloyatlar ham bosqichsimon hududiy tuzilmalardan iborat.

Mamlakatimizning yoqilg'i-energetika, don (g'alla) va yo'l (transport) mustaqilligiga erishuv jarayonida uning iqtisodiy rayonlari ham son va sifat jihatidan tashkil topib borishi muqarrardir. Ehtimol, kelajakda Guzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lining qurilishi natijasida Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlari o'zaro iqtisodiy va geografik jihatdan «yaqinlashib», yagona Janubiy iqtisodiy rayonni shakllanishiga sabab bo'lishi ajab emas. Ayni chog'da Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlari yana an'anaviy Zarafshon iqtisodiy rayoni doirasida birlashtirilishi ham mumkin (Soliev, «Istiqbol» jurnali, 1993, №1-2; Soliev, Sultonov, «Iqtisod va hisobot» jurnali, 1998, №8).

Mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishi va iqtisodiy rayonlari o'rtasida muayyan aloqadorlik mavjud. SHu bilan birga alohida viloyatlar xo'jaligi ham iqtisodiy rayon shaklida ko'rilishi mumkin. Biroq, bunday toifadagi birliklar ma'muriy-iqtisodiy rayonlardir. Aslida ular mamlakatning geosiyosiy tuzilmasini tashkil etadi, haqiqiy (real) geografik rayonlar esa uning geoiqtisodiy tizimini aks ettiradi.

Ba'zilar rayon va rayonlashtirish sobiq, Ittifoq, kommunistik g'oyalar bilan asossiz bog'laydilar va shu bois undan voz kechish tarafdori bo'lib chiqadilar. Ustiga ustak, bu sohada avvalari qalam tebratgan, ustozlarimiz aybsiz ayblansa, xudoning o'zi kechirsin, mabodo ularga kaltak otilsa bizga ham kelajakda shogirdlarimizning tosh otmasligiga kim kafolat bera oladi?! Binobarin, tarixga faqat tarixiy qarash, baho berish kerak. Muhtaram Prezidentimiz aytganlaridek, bu yerda ham yangisini qurmasdan turib eskisini buzmaslik lozim.

Nazariy g'oya va kontseptsiyalar, agar ular haqiqiy ilmiy bo'lsa, siyosiy mafkura bilan bevosita bog'liq emas. Zero fan, ilmiy tadqiqot natijalari millat va elatni bilmaydi, ularning olamshumul, baynalminal ahamiyati ham ana shunda. Qolaversa, rayonlashtirish g'oyalari faqat Sovet davrida vujudga kelmagan, ular undan oldinroq ham mavjud edi. Hozirgi kunda ham har qanday mamlakat (ijtimoiy tuzumidan qat'iy nazar) iqtisodiy rayonlar tavsifiga bag'ishlangan kitobni oling, ularning barchasida iqtisodiy rayonlar, ichki tafovutlar bandi albatta bor. Chunki bu bo'limsiz u to'laqonli, mukammal iqtisodiy geografik asar bo'la olmaydi.

Hatto sobiq Ittifoq hududida tashkil topgan mustaqil davlatlar, masalan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasida yangi chiqarilgan iqtisodiy va sotsial geografiyasi darsligiga ham rayonlar qismi kiritilgan. Demak, iqtisodiy geografik ta'rif ikki qismdan, ya'ni tarmoqlar va regional bayonidan iborat bo'lmog'i zarur.

Boz ustiga, biz mamlakatda iqtisodiy rayonlarning shakllanishini eski «sarqit» emas, balki suveren respublikamiz hududiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim ko'rsatkichi deb e'tirof etmoqchimiz. Zero, agar O'zbekiston sobiq SSSRning kichik parchasi, chekkasi bo'lgan bo'lsa, endi uning o'zi bir dunyo, ulkan va kelajagi buyuk, qudratli davlatdir. Tabiiyki, bunday mustaqil davlat o'zining ichki ma'muriy va geoiqtisodiy tuzilmasiga ega bo'lishi shart.

To'g'ri, mustaqillik sharoitida iqtisodiy rayonlarga bo'lgan avvalgi munosabat – ularning sotsialistik rejalashtirish va boshqarish ob'ekti sifatida qaralishi, planli va proporsional rivojlanishi kabi ilgarigi mintaqaviy siyosat o'z kuchini tamomila yo'qotdi. Bularning o'rniga hozirgi davr uchun dolzarb va ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish, ichki iqtisodiy integratsion jarayonlarni avj oldirish, mustaqil davlatning mintaqaviy siyosatini ilmiy

asosda ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etishga o'xshash masalalar oldinga surilmoqda. Xuddi korxona yoki tarmoqlar singari erkin hududiy raqobat, hududlar iqtisodiy rivojlanishining demokratlashuvi, bozor munosabatlariga o'tish davrida ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etishni davlat tomonidan boshqarib, tartibga solib borish, geoekologik muammolarni hal etish masalalari muhim bo'lib kelmoqda. Xuddi shu nuqtai nazardan qaraganda, iqtisodiy rayonlar bilan bir qatorda ulardan yirikroq bo'lgan iqtisodiy mintaqalarni ham shakllantirish zaruriyati tug'iladi. CHunonchi, respublikamizda Markaziy, SHarqiy, Janubi-G'arbiy va SHimoli-G'arbiy mintaqalarni ajratish mumkin.

Mamlakatimiz hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini yaratish va mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda iqtisodiy rayonlashtirish ilmiy va metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Ayni paytda, rayonlashtirish geografiya fanining bosh printsipli hamdir; chunki mamlakat xo'jaligi hududiy tarkibini, uning ichki rang-barangligini faqat rayonlashtirish orqaligina chuqur o'rganish mumkin. Bunday geografik bilim va fikrlash uchun o'zga yo'l yo'q va bo'lishi ham mumkin emas.

Mamlakat yoki mintaqalar xo'jaligini faqat tarmoqlar printsipli asosida o'rganish iqtisodiy geografik dunyoqarashni qanoatlantirmaydi; unda ichki hududiy tafovutlar, bir joyning ikkinchi joydan farqi uncha sezilmaydi. Binobarin, iqtisodiy geografiya fanini (u o'quv predmetigina emas!) o'rganishda bu ikki tamoyilga-tarmoqlar va hududiy metodlar mushtarakligiga katta urg'u bermoq zarur. Biroq, bu ikkilikda, shubhasiz hududiy tarkib va tuzilma, rayonlashtirish ustuvor bo'lmog'i talab etiladi. Sababi, avvalroq qayd qilganimizdek, rayon, rayonlashtirish umuman geografiya fanining umurtqa pog'onasi, o'zagi, ibtido va intihosidir. Bunday oddiy haqiqatni unutish yoki uni tan olmaslik geografiyani kamsitish, tahqirlash, uni fan maqomida inkor etish bilan barobardir.

SHunday qilib, iqtisodiy rayonlar mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning ob'ekti, nazariy asosi hisoblanadi. Ular erkin savdo yoki erkin iqtisodiy mintaqasi sifatida ham ko'rilsa bo'ladi. Bunday hollarda iqtisodiy rayonlarning iqtisodiy o'rni ham katta ahamiyatga ega.

Albatta, davlatning mintaqaviy siyosatini hayotga tatbiq etishda faqat iqtisodiy rayonlar emas, balki tabiiy geografik o'lkalar, daryo havza va sohillari, yirik shaharlar va shahar atrofi, alohida viloyat va tumanlar olinishi mumkin. Ammo hududlarni kompleks rivojlantirishda, ularning xom ashyo, mehnat resurslari va demografik salohiyatidan to'g'ri va samarali foydalanishda eng avvalo iqtisodiy rayonlashtirishning xizmat qiladi.

Nazorat savollari

5. Rayon geografiya qanday talqin qilinadi?
6. Mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishi va iqtisodiy rayonlar o'rtasida qanday farqlar mavjud?
7. Iqtisodiy rayonlar mintaqaviy siyosatni amalga oshirish qanday rol o'ynaydi?
8. Hududlarni kompleks rivojlantirishda iqtisodiy rayonlashtirishning o'rnini tushuntiring.
9. Davlatning mintaqaviy siyosatini hayotga tatbiq etishda iqtisodiy rayonlardan tashqari yana qanday hududlar olinishi mumkin?

5-Mavzu test savollari

1. Geografiya fanining o'zak tushunchasini aniqlang?

- A) yer.
- B) rayon*
- C) geografik qobiq
- D) mintaqasi

2. «Rayon» so'zi qaysi tildan olingan?

- A) ingliz
- B) fransuz*
- C) lotin
- D) nemis

3. Iqtisodiy geografik ta'rif necha qismdan iborat bo'lmog'i zarur va ular qaysilar?

- A) ikki qismdan, ya'ni tarmoqlar va regional bayonidan iborat bo'lmog'i zarur*
- B) ikki qismdan, ya'ni global va regional bayonidan iborat bo'lmog'i zarur
- C) ikki qismdan, ya'ni tarmoqlar va local bayonidan iborat bo'lmog'i zarur
- D) ikki qismdan, ya'ni global va local bayonidan iborat bo'lmog'i zarur

4. Bozor munosabatlariga o'tish davrida ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etishni davlat tomonidan boshqarib, tartibga solib borish, geoeologik muammolarni hal etish masalalari nuqtai nazardan qaraganda, mamlakatimizda, iqtisodiy rayonlar bilan bir qatorda ulardan yirikroq bo'lgan nechta iqtisodiy mintaqalarni ajratish mumkin va ular qaysilar?

- A) ikkita: Shimoliy va Janubiy mintaqalar
- B) to'rtta: Shimoliy, Janubiy, G'arbiy va Sharqiy.
- C) to'rtta: Markaziy, Sharqiy, Janubi-G'arbiy va Shimoli-G'arbiy mintaqalar*
- D) ikkita: G'arbiy va Sharqiy.

5. Mamlakatimiz hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini yaratish va mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda nima ilmiy va metodologik asos sifatida xizmat qiladi?

- A) tabiiy geografik rayonlashtirish
- B) mintaqalarga ajratish
- C) iqtisodiy rayonlashtirish*
- D) HICHM larini tashkil etish

6. Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning ob'ekti va nazariy asosini aniqlang?

- A) tabiiy geografik rayonlar
- B) mintaqalar
- C) HICHM lar
- D) iqtisodiy rayonlar*

Mavzu 6. O'zbekiston Respublikasida mintaqaviy siyosatning tarixi

Reja

1. Sobiq Ittifoq davrida qoloq bo'lgan hududlarni rivojlanish.
2. O'tmishda O'zbekistonning rivojlantirilishi?
3. Farg'ona vodiysini har tomonlama rivojlantirish davri.
4. O'zbekistonda "SOPS" faoliyati.

Ma'lumki, sobiq Ittifoq davrida yuzaki bo'lsada (amalda u deyarli ro'yobga chiqmadi) o'tmishda qolok bo'lgan chekka respublikalarning iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirishga e'tibor berilgan. Erishilgan natijalar asosan 1913 yilga nisbatan solishtirilar edi. Oqibatda milliy respublikalar sanoati va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar nihoyatda yuksak darajada rivojlangan bo'lib ko'rinardi. Darhaqiqat, bu respublikalarda, jumladan O'zbekistonda zamonaviy sanoat korxonalari, temir yo'llar yo'q yoki o'ta zaif edi. SHuning uchun bo'lsa kerak, solishtirma raqamlar juda yuqori bo'lardi.

Agar tarixga to'g'ri qaraydigan bo'lsak, sobiq sho'rolar davrida O'zbekiston mamlakatning asosan xom ashyo bazasi sifatida rivojlantirildi, milliy iqtisod esa bir tomonlama, paxta yakka hokimligiga asoslangan edi. To'g'ri, shu bilan birga, turli sabab va sharoitlar tufayli bu yerda elektr energetikasi, qora va rangdor metallurgiya korxonalari (CHirchiq GES kaskadi, Farxod GES, Olmaliq, Bekobod, Zarafshon sanoat markazlari va b.) barpo etildi. Ammo mahalliy xom ashyo mavjudligiga qaramasdan hatto yengil (to'qimachilik) sanoati ham rivojlanmadi.

Respublikaning mintaqaviy siyosati sust darajada edi, chunki uning o'zi Ittifoqning alohida mintaqasi hisoblanardi. Biroq, shunga qaramasdan bu xususda ayrim fikrlarni aytishimiz mumkin. Masalan, 50-yillarda Farg'ona vodiysini har tomonlama rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Aynan ana shu vodiygga tegishli holda Ittifoq miqyosida tan olingan "mintaqalarning kompleks muammolari" ilmiy amaliy yunalishi yaratildi (V.I.CHetirkin, K.N.Bedrintsev).

Bundan tashqari, 1956 yildan boshlab Mirzacho'lni o'zlashtirish ishlari olib borildi. Bu ishlar 60 va 70-yillarda ham davom ettirildi. Natijada yirik paxtachilik mintaqasi shakllandi va uning asosida Sirdaryo viloyati tashkil kilindi. Biroq, hozirgi kun nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bu hududdagi sof paxta yakka hokimligi vujudga keldi, amalda kompleks rivojlantirish bo'lmadi; hatto mavjud paxta xom ashyosi negizida birorta to'qimachilik korxonasi ham qurilmadi.

Uchinchi misol sifatida Angren-Olmaliq tog' kon sanoatini ko'rsatish mumkin. Bu mintaqada ko'ng'ir ko'mir, rudali konlar, qurilish xom ashyosi va boshqalar asosida yirik sanoat majmuasi va markazlari bunyod etildi, Angren-ko'mir, Olmaliq-rangdor metallurgiya va ximiya, Ohangaron tsement va un sanoati markazi shaklida rivojlandi. Asosiy kamchilik bu yerda, albatta, atrof muhitning ifloslanishi, ekologik muammolarning keskinlashuvi bo'ldi.

70-yillarda Qarshi dashtini o'zlashtirish ishlari avjiga chiqdi. Buning natijasida Qashqadaryo viloyatida yirik paxtachilik mintaqasi vujudga keldi. Keyinchalik qishloq xo'jaligining bu sohasi tog' kon ximiyasi, neft va gaz, oziq ovqat sanoati bilan birgalikda rivojlanib bordi, yirik Tolimarjon GRESining qurilishi boshlab yuborildi, Muborak, Koson, Tolimarjon kabi sanoat shaharlari vujudga keldi.

Sobiq Ittifoq davrida respublikamizning mintaqaviy siyosati Quyi Amudaryoga va xususan, Qoraqalpog'istonga ham qaratilgan edi. Orol muammosini xal etish, mintaq xom ashyosi va mineral resurslaridan keng va samarali foydalanish nazarda tutilgan edi. Biroq, bunday mintaqaviy dasturlar ham to'laligicha amalga oshirilmay qoldi.

SHuningdek, navqiron Jizzax viloyati, Surxondaryoning SHERobod dashti, Namanganning adir zonasini rivojlantirishga ham ahamiyat berilgan edi. SHular qatorida respublika poytaxti-Toshkent shahrini obodonlashtirish ishlari ham olib borildi (uy joylar, madaniy va ma'muriy binolar, metropoliten qurildi).

Boshqa respublikalarda bo'lganidek, yirik shaharlar rivojlanishini chegaralash, kichik va o'rta shaharlarni faollashtirish masalasi qo'yilgan edi. Ammo bunday tadbir va dasturlar ham amalda deyarli bo'lmadi.

SHunday qilib, sobiq sotsialistik tuzumda Ittifoq va respublika miqyosida mintaqaviy siyosat u yoki bu darajada olib borildi. SSSR Davlat rejalashtirish qoshidagi Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish(SOPS) kengashida 19 ta iqtisodiy rayonga mos ravishda alohida, maxsus bo'limlar mavjud edi, akad. N.N.Nekrasovning mintaqaviy iqtisodiyot (regional'naya ekonomika) monografiyasining 2ta nashri chop etilgan edi. O'zbekistonda ham "SOPS" yuqorida keltirilgan mintaqalarda hududiy ishlab chikarish majmualari masalalari bilan shug'ullangan. Biroq, bunday tadqiqot va tadbirlarning barchasi amalda to'laligicha bajarilmadi, sababi-sotsialistik g'oya hududiy tenglashtirish g'oyasi ediki, u aslida noto'g'ri edi.

Nazorat savollari

1. Sobiq Ittifoq davrida qoloq bo'lgan hududlarni rivojlanishini tezlashtirishga qanday berilgan.

2. O'tmishda O'zbekistonning rivojlantirilishi?
3. Farg'ona vodiysini har tomonlama rivojlantirishga katta e'tibor berildi.
4. O'zbekistonda "SOPS" qanday masalalari bilan shug'ullangan?
5. Qarshi dashtini o'zlashtirish ishlari qachon avjiga chiqdi va uning natijalari qanday?.

6-Mavzu test savollari

1. Ittifoq miqyosida tan olingan "mintaqalarning kompleks muammolari" ilmiy amaliy yunalishi qayerda yaratildi va ularning asoschilari kimlar?
 A) Samarqandda. V.I.CHetirkin, K.N.Bedrintsev
 B) Xorazmda. V.I.CHetirkin, K.N.Bedrintsev
 C) Toshkentda. V.I.CHetirkin, K.N.Bedrintsev
 D) Farg'ona vodiysida. V.I.CHetirkin, K.N.Bedrintsev*
2. Nechanchi yildan boshlab Mirzacho'lni o'zlashtirish ishlari boshlandi?
 A) 1956-yildan*
 B) 1965-yildan
 C) 1960-yildan
 D) 1975-yildan.
3. Nechanchi yillarda Qarshi dashtini o'zlashtirish ishlari avjiga chiqdi?
 A) 1970-yillarda*
 B) 1965-yillarda
 C) 1960-yillarda
 D) 1975-yillarda.

Mavzu 7. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning mintaqaviy siyosati **Reja**

1. Bozor munosabatlariga o'tgan rivojlangan mamlakatlar tajribasi.
2. Mintaqaviy siyosatni AQSH, Frantsiya va Buyuk Britaniyada olib borilishi.
3. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ichki mintaqaviy siyosatini o'tkazish
4. Rivojlanayotgan mamlakatlarning mintaqaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari

Oldingi mavzulardan ma'lum bo'ldiki, har bir mustaqil davlat o'zining mintaqaviy siyosatini amalga oshirib boradi. Buning asosida ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ekologik va demografik vaziyatning hududiy tarkibi va holatini turlicha bo'lishi yotadi. Tabiiyki, mamlakatning barcha hududlari aynan birday holatda bo'lmaydi: qaysi bir rayon yaxshi rivojlangan, boshqasi o'rtacharoq, uchinchi qoloq, to'rtinchisi ilgari rivojlanagan, lekin hozirgi kunda u to'xtab qolgan va h.k. Demak, sub'ekt, ya'ni barcha iqtisodiy islohotlarning egasi-davlatning bunday hududlarga o'zining o'ziga xos va mos munosabati bo'lmog'i kerak. Modomiki ayni vaqtning o'zida hamma joylarni bir xil rivojlantirib bo'lmas ekan, rivojlanishga imkoniyati bor rayonlar birinchi navbatda tanlanishi lozim. Bu yerda ko'rinib turibdiki, ehtiyoj va imkoniyat birligi zarur. Biroq, imkoniyat ehtiyojdan ustunroq turadi, sababi - ehtiyoj bo'lsa-yu, bunga imkoniyat bo'lmasa u mintaqani rivojlantirib bo'lmaydi.

Imkoniyatlar avvalambor shu joyning xom ashyo, mehnat resurslari, qulay geografik o'rni, yaxshi ekologik vaziyat kabilardan tashkil topadi. SHu bilan birga hududlarda boqimandalik kayfiyati bo'lmasligi kerak, ular ham doimo izlanishda, harakatda, erkin va sog'lom raqobatda, tashabbus- kor bo'lishi talab etiladi.

Bu borada allaqachon bozor munosabatlariga o'tgan rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Taraqqiy etgani mamlakatlarda ishlab chiqarish kuchlari tarmoq va hududiy jihatdan yuksak darajada rivojlangan, hududning iqtisodiy ko'rsatkichlari yuqori.

Rivojlangan mamlakatlarda intensiv omillar yetakchilik qiladi, yangi o'zlashtiriladigan yer va boshqa resurslar ham deyarli qolmagan, demografik vaziyat esa aksariyat hollarda keskin, ya'ni aholi va mehnat resurslarining takror barpo etilishi past bo'ladi. Biroq, bandlik darajasi yuqori, ishchi kuchi, ayniqsa malakasiz, arzon ishchilar yetishmaydi. Ekologik holat ham noxush darajada.

Bunday mamlakatlarda (Evropa davlatlari, AQSH, Yaponiya va b.) yalpi milliy mahsulot va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad yuqori, o'rtacha umr ko'rish uzoq, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimi rivojlangan. Ulardagi asosiy vazifa strukturaviy o'zgarishlar, hozirgi zamon ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalanish bilan bog'liq. Mintaqaviy siyosatda esa asosan poytaxt va yirik shaharlar rivojlanishini oldini olish, ayrim rivojlanishi to'xtab qolgan hududlar, «muammoli» rayonlarni jonlantirishdan iborat bo'ladi.

Mintaqaviy siyosat ayniqsa AQSH, Frantsiya va Buyuk Britaniyada samarali olib borilmoqda. Masalan, AQSH da 30-40 yillarda Tennesi havzasini rivojlantirish dasturi, keyinchalik esa Appalachi rayonini jonlantirish kabi muhim tadbirlar amalga oshirilgan. SHuningdek, Atlantika sohillari, janub va shimol rayonlari, Buyuk ko'llar mintaqasi muammolari ham davlat nazarida bo'lib kelgan.

Frantsiya, aytish mumkinki, mintaqaviy siyosatda, xususan poytaxt shaharlarining rivojlanishini tartibga solish borasida boy tajribalarga ega. Aynan shu mamlakatda ishlab chiqarishni notekis rivojlanishi, poytaxt Parij shahrining to'xtovsiz rivojlanishini jilovlash maqsadida «kontrmagnit shaharlar» yoki markazlar kontseptsiyasi amalga oshirilgan: poytaxtdan ancha olisda va turli tomonlarda joylashgan shaharlarga katta mablag'lar yo'naltirilgan. Buning natijasida ular nihoyatda jadal rivojlanib moddiy va moliyaviy resurslarni, aholi migratsiyasini o'zlariga jalb qilgan, tortgan, Parijning esa haddan tashqari yiriklashuvini oldi olingan.

Buyuk Britaniyada SHotlandiya, SHim. Irlandiya, London konurbatsiyasini rivojlantirish masalalari davlatning mintaqaviy siyosati doirasidagi muhim muammolardir. Ammo poytaxtni tiklash maqsadida qurilgan yangi shaharlar tez orada London tomonidan «yutib» yuborildi, uning yotoqxona shaharlariga, «yo'ldoshlariga» aylandi. Sababi – bu shaharlar poytaxtdan uncha uzoqda emas edi.

SHuningdek, boshqa rivojlangan mamlakatlarda ham mintaqaviy siyosat ham mavjud. CHunonchi, Germaniyada «yangi yerlarni» (ya'ni sobiq GDR-ni), poytaxt shahar Berlinni rivojlantirish, Italiyada janubiy rayonlari va Sitsiliya oroli, Yaponiyada Tokio-Iokogama megalopolisi muammolari hal etilishi kerak.

Sobiq SSSR-da ham mintaqaviy siyosat birmuncha amalga oshirilgan edi. Biroq ularning barchasi to'laligicha hal etilmadi. Masalan, BAM mintaqasi, G'arbiy Sibir, noqoraturproq zonasi kabi ulkan dasturlar bajarilmadi. Lekin, tan olish kerakki, avvalroq Angara, Dnepr, Volga dasturlari, qo'riq yerlarni o'zlashtirish, Ikkinchi jahon urushida vayron bo'lgan shaharlarni tiklash singari muammolar ijobiy hal qilingan edi. Hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasida mintaqaviy siyosat davlat darajasiga ko'tarilgan, chunki uning barcha hududlari (Krasnoyarsk, Uzoq SHarq, SHimol, CHEchen, Dog'iston kabilar) iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishga muhtojdir.

Rivojlanayotgan mamlakatlar, odatda, qazilma boyliklarga ega, biroq ularni qayta ishlash uchun zamonaviy texnologiyasi yo'q; arzon ishchi kuchi ko'p, ammo ish o'rinlari kam, malakali ishchilar oz. SHuningdek, bunday mamlakatlarning ko'pchiligi o'tmishda demografik revolyutsiya bosqichini boshdan kechirgan. Hozirgi vaqtda ular demografik jarayonlar bo'yicha ham o'tish davrini ham boshdan kechirmoqdalar.

Ilgari butun jahon mamlakatlari asosan uch guruhga bo'linar edi: kapitalistik, sotsialistik va «uchinchi dunyo», ya'ni rivojlanayotgan mamlakatlar. So'nggi guruh mamlakatlari keyinchalik yo kapitalistik, yoki sotsialistik yo'lni tanlab olishlari mumkin edi. Hozirgi davrda

mamlakatlarni siyosiy tuzumlariga qarab emas, balki iqtisodiy rivojlanish yo'llariga asoslanib ajratiladi.

Uchinchi guruh mamlakatlarning ayrimlari yuksak darajaga erishdilar va ular barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ko'ra rivojlangan mamlakatlar safiga yaqinlashdilar. Ular jumlasiga Braziliya, Argentina, Chili, Avstraliya kabi mamlakatlarni kiritish mumkin. SHu bilan birga yaqinda «Osiyo kichik ajdaholari» deb ataluvchi Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlari (Singapur, Malayziya, Filippin, Jan. Koreya va b.) katta yutuqlarga erishdilar.

Rivojlanayotgan mamlakatlar orasida «rivojlanmayotgan»lari ham bor. Ular, aslini olganda, agrar, ya'ni qoloq mamlakatlar hisoblanadi (ko'pchilik Afrika davlatlari, Nepal, Butan va b.) va aksariyat hollarda noqulay geografik o'ringa ega-materiklar ichkarisida, dengizva okeanlardan ancha olisda joylashgan. Bu tipdagi mamlakatlarda inflyatsiya va ishsizlik avj olgan, aholining nisbiy emas balki mutloq ortiqchaligi sezilib turiladi; kasallanish va bolalar o'limi yuqori, o'rtacha umr ko'rish davri qisqa, savodxonlik darajasi past bo'ladi.

Tabiiyki, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi hozircha o'zlarining ichki mintaqaviy siyosatini o'tkazishga qodir emas. Binobarin, ularning ba'zilarida rivojlangan mamlakatlarda, eng avvalo Frantsiyada ishlab chiqilgan iqtisodiy rivojlanishning hududiy tashkil etish modeli tadbir etilmoqda.

Ko'rilayotgan mamlakatlarning mintaqaviy siyosati asosan quyidagi yo'nalishlardan iborat:

- poytaxt shaharlarni rivojlantirish yoki ularning haddan tashqari yiriklashganligini oldini olish;
- urbanizatsiya jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- milliy iqtisodiyotning hududiy tarkibini yaxshilash;
- agrar, aholisi zich joylashgan rayonlarni rivojlantirish;
- geoeologik muammolarni hal etish va b.

Yuqoridagi muammolarni yechishda bu mamlakatlar xorijiy sarmoyalarga va yordamga muhtoj. SHuningdek, ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilish borasidagi g'oyalarni ham o'zlarida tadbir etadi. Buning uchun BMT ning maxsus ekspertlari yuboriladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda eng avvalo infrastruktura tizimini joriy qilishga katta e'tibor beriladi. Aynan shu maqsadda sanoat yoki industrial parklari yaratiladi. Buning uchun maxsus tashkilotlar hududlarni tanlab, ularni infrastruktura jihatidan jihozlaydi, ya'ni yo'l, suv, elektr tarmoqlar, temir yo'l, yer usti va osti qurilmalari (kommunikatsiyalari) tayyorlanadi, bo'lajak sanoat korxonasining binosi ham quriladi. Tayyorlangan joy-sanoat parki sanoatchilarga sotiladi yoki ijaraga beriladi.

Ana shu tarzda milliy iqtisodiyot jonlantiriladi. Bu muammo o'sish markazi va qutblari orqali ham amalga oshiriladi (g'oya frantsuz iqtisodchisi Fransua Perru tomonidan yaratilgan). O'sish markazlari bu maxsus tanlagan shahar, u qulay geografik o'rin va boshqa imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Mazkur shaharlarda (ularning soni ko'p bo'lmaydi va mamlakatlarning turli hududlarida joylashgan bo'ladi) zamonaviy sanoat korxonasi neftni qayta ishlash yoki mashinasozlik zavodi, metallurgiya korxonasi kabilar joylashtiriladi va natijada ular o'sish markaziga aylanadi. Keyinchalik bu markazlarda qurilgan korxonalar bilan bog'liq yoki texnologik jarayonning davomi sifatida turdosh («qarindosh») korxonalar barpo etiladi. Masalan, neftni qayta ishlash zavodi yaqinida plastmassa, polieten, rezina-shisha zavodlari paydo bo'ldi. Mashinasozlik markazlari ham turli yordamchi korxonalar bilan boyitiladi. SHunday qilib, markaz o'sish qutibiga aylanadi, mazkur hududning atrofga ta'siri kuchaydi, mamlakatda tutgan o'rni yuksaladi.

O'sish qutb va markazlari odatda hududning iqtisodiy salohiyati (sig'imi) uncha kuchli bo'lmagan, iqtisodiy zichlik past bo'lgan mamlakatlarda yaratiladi. Bunday iqtisodiy-geografik muhitda barpo etilgan o'sish qutb va markazlari bamisoli yulduzdek porlab turadi, atrofga o'zining nurini sochadi. Agar avvallari markazga intiluvchi kuch zo'rlik qilgan bo'lsa, keyinchalik fizikadagi diffuziya qonunidek, atrofga ta'ir kuchayadi. hududiy iqtisodiy zichlik

oshgandan so'ng «markaziy o'rinlar» g'oyasi (Kritallar-Lesh) qo'llanishi mumkin. Bu g'oya ko'pincha rivojlangan hududlarda amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

5. Bozor munosabatlariga o'tgan rivojlangan mamlakatlarlar tajribasi qanday?
6. Mintaqaviy siyosatni AQSH, Frantsiya va Buyuk Britaniyada qanday olib boriladi?
7. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ichki mintaqaviy siyosatini tushuntiring?
8. Rivojlanayotgan mamlakatlarning mintaqaviy siyosatining asosiy yo'nalishlarini gapiring?
9. Nima uchun mamlakatlarda poytaxt shaharlarni rivojlantirish yoki ularning haddan tashqari yiriklashganligini oldini olish uchun mintaqaviy siyosat olib boriladi?

7-Mavzu test savollari

1. Rivojlangan mamlakatlarda hududlarni iqtisodiy rivojlantirish uchun qanday omillar yetakchilik qiladi?
 - A) ekstensiv omillar
 - B) intensiv omillar*
 - C) iqtisodiy omillar
 - D) tabiiy omillar
2. Mintaqaviy siyosat ayniqsa qaysi mamlakatlarda samarali olib borilmoqda?
 - A) O'zbekiston, Rossiya va Germaniya
 - B) Italiya, Tailand va Xitoyda
 - C) Braziliya, Fransiya va Xitoyda
 - D) AQSH, Fransiya va Buyuk Britaniyada*
3. Fransiyada Parij shahrining to'xtovsiz rivojlanishini jilovlash maqsadida qanday ishlar amalga oshirilgan?
 - A) Parijga yondosh shaharlarga kata etibor qaratilgan.
 - B) «kontrmagnit shaharlar» yoki markazlar kontseptsiyasi amalga oshirilgan: poytaxtga ancha yaqin va turli tomonlarda joylashgan shaharlarga katta mablag'lar yo'naltirilgan.
 - C) «kontrmagnit shaharlar» yoki markazlar kontseptsiyasi amalga oshirilgan: poytaxtdan ancha olisda va turli tomonlarda joylashgan shaharlarga katta mablag'lar yo'naltirilgan. *
 - D) aglomeratsiya shakllantirilgan
4. «Osiyo kichik ajdaholari» deb ataluvchi Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari guruhini aniqlang?
 - A) Singapur, Malayziya, Jan. Koreya*
 - B) Singapur, Bruney, Jan. Koreya
 - C) Vetnam, Malayziya, Jan. Koreya
 - D) Singapur, Malayziya, Myanma
5. Rivojlanayotgan mamlakatlarning mintaqaviy siyosati asosan qanday yo'nalishlardan iborat?
 - A) poytaxt shaharlarni rivojlantirish yoki ularning haddan tashqari yiriklashishini oldini olish

- B) urbanizatsiya jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish
- C) milliy iqtisodiyotning hududiy tarkibini yaxshilash
- D) barcha javoblar to'g'ri*

6. O'sish markazi va qutblari nazariyasining muallifini aniqlang?

- A) nemis iqtisodchisi Fransua Perru
- B) frantsuz iqtisodchisi A. Lyosh
- C) frantsuz iqtisodchisi Fransua Perru *
- D) frantsuz iqtisodchisi V. Kristaller

7. O'sish qutb va markazlari odatda qanday xususiyatga ega bo'lgan bo'lgan mamlakatlarda yaratiladi?

- A) hududning iqtisodiy salohiyati (sig'imi) uncha kuchli bo'lmagan, iqtisodiy zichlik past bo'lgan mamlakatlarda yaratiladi.*
- B) hududning iqtisodiy salohiyati (sig'imi) ancha kuchli bo'lgan, ammo iqtisodiy zichlik past bo'lgan mamlakatlarda yaratiladi.
- C) hududning iqtisodiy salohiyati (sig'imi) uncha kuchli bo'lmagan, ammo iqtisodiy zichlik yuqori bo'lgan mamlakatlarda yaratiladi.
- D) hududning iqtisodiy salohiyati (sig'imi) ancha kuchli bo'lgan, hamda iqtisodiy zichlik yuqori bo'lgan mamlakatlarda yaratiladi.

Mavzu 8. Mamlakat mintaqaviy siyosatini belgilashda hududlar imkoniyatlarini o'rganish.

Reja

1. Mamlakatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishda hududlar imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olish.
2. Hududlarning imkoniyatlarini aniqlash omillari
3. Respublikaning har bir mintaqasining o'ziga xos imkoniyat va muammolari
4. Masalalarni hal etishda tadqiqot usullaridan foydalanish

Bozor munosabatlariga o'tish davrida mamlakatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirish eng avvalo hududlar imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olishni talab qiladi. Buning uchun viloyatlarning ham tadbirkorligi, boshqa hudud va xorijiy mamlakatlar bilan aloqa qilishi zarur.

Hududlarning imkoniyatlarini baholashda eng avvalo ularning yer-suv, aholi va mehnat resurslari, qazilma boyliklari, transport tizimi, ijtimoiy infrastrukturasini, iqtisodiy geografik o'rni, ekologik vaziyati va hokazolar atroflicha tahlil etiladi. Bunday o'rganish ekspert usuliga ham asoslanadi, ya'ni har bir omil 10 yoki 5 balli shkalada baholanadi. Agar bu baholashda ekspertlar(mutaxassislar) mustaqil ravishda qatnashsalar uning natijasi yanada ob'ektivroq va to'g'ri bo'ladi.

Har bir omilni, masalan 10-balli shkalada baholashda, raqam miqdorining oshishi aynan shu omil bo'yicha qulaylik darajasini aks ettiradi. Aytaylik, viloyat imkoniyati tabiiy resurslar nuqtai nazaridan baholanishi talab etilsa, u holda shubhasiz Navoiy viloyatining bali yuqori bo'ladi, chunki bu hudud turli qazilma boyliklariga boy. Ayni paytda Xorazm viloyatining bahosi ancha past bo'ladi. Sababi- viloyatda qazilma boyliklari deyarli yo'q.

Xuddi shunday, mehnat resurslarini baholashda aksariyat viloyatlar yuqori baho oladilar. CHunki, barcha viloyatlarda ishchi kuchi ko'p va bandlik darajasi past. Ammo ayrim viloyatlarda, masalan Toshkent viloyatida mehnat resurslari sifat jihatidan boshqa hududlardan biroz farq qiladiki, bunday holat uning istiqbol imkoniyatlarini baholashda e'tiborga olinishi kerak.

Agar ekologik vaziyatni baholamoqchi bo'lsak, juda kam hollarda bu omil yuqori natijaga ega bo'lishi mumkin. Zero, geoekologik holat hozirgi kunda ko'pgina viloyatlarda yaxshi emas. Biroq, baholash usuli nisbatan olinganligi sababli Samarqand, Jizzax, Namangan kabi viloyatlar birmuncha ijobiy baholanishlari mumkin.

Xullas, respublikaning har bir viloyati o'ziga xos imkoniyat va muammolarga ega. Masalan, Toshkent shahrining iqtisodiy geografik o'rni qulay, infrastruktura tizimi ham yaxshiroq, ammo ekologik vaziyat uncha yaxshi emas.

Toshkent viloyatida transport tizimi yaxshi, qazilma boyliklari, mehnat resurslari ham ko'p, iqtisodiy geografik o'rni ham qulayroq. Biroq, bu yerda ham ekologik vaziyat nochorroq.

Farg'ona viloyatida ishchi kuchi ko'p, qazilma boyliklari kamroq, ekologik vaziyat o'rtacha. Andijon viloyatida ham ahvol shunga o'xshash, ammo Namanganda yer resurslari(adirlar) birmuncha ko'proq.

Sirdaryo viloyatini aytarlicha ijobiy jihatdan ajratib turuvchi imkoniyatlari yo'q. Bu yerda qazilma boyliklar juda oz, yer sho'rlanishi yuqori, mehnat resurslari uncha ko'p emas. Uning birdan-bir qulay imkoniyati poytaxt Toshkentga yaqinligi hamda infrastruktura tizimining nisbatan rivojlanganligidir.

Qo'shni Jizzax viloyatida birmuncha resurs imkoniyatlari mavjud-bu yerda ayrim qazilma boyliklari mavjud. Samarkand viloyatida ham ahvol taxminan shunday; Navoiy viloyati esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zining resurs salohiyati bilan ajralib turadi.

Buxoro viloyatida mehnat resurslari, tabiiy boyliklar va yer resurslari, rekreatsiya va turizm imkoniyatlari bor. Ammo qo'shni Qashqadaryo viloyatining sharoitlari Buxorodan ham yaxshiroq. Surxondaryo viloyatining transport geografik o'rni yaxshilangandan so'ng uning iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari yanada oshadi. CHunki bu yerda qazilma boyliklar zaxirasi ham mavjud. Biroq, bu viloyatning siyosiy geografik o'rni hozircha uncha kulay emas.

Xorazm viloyatining eng asosiy rivojlanish omili bu uning mehnat resurslaridir. Qoraqalpog'istonda turli xil qazilma boyliklari bor, lekin ularni o'zlashtirish, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda Orolbo'yi mintaqasida vujudga kelgan ekologik vaziyat salbiy ta'sir qiladi.

SHunday qilib, har bir hudud(viloyat doirasida qishloq, tumanlar va shaharlar ham) alohida-alohida omillar buyicha o'rganilib chiqiladi va baholanadi. Natijada hududlarning rivojlanish imkoniyatlari va ustivor yunalishlari aniqlanadi.

Mazkur masalalarni hal etishda kartografiya, statistik, geografik taqqoslash, ekspert va boshka usullardan foydalaniladi.

Nazorat savollari

5. Mamlakatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishda hududlarni nimalari hisobga olinadi?
6. Hududlarning imkoniyatlarini qanday omillari orqali aniqlanadi?
7. Respublikaning mintaqalarining qanday o'ziga xos imkoniyat va muammolari mavjud?
8. Muamolarni o'rganishda qanday tadqiqot usullaridan foydalaniladi?
9. Mamlakat mintaqaviy siyosatini belgilashda hududlar imkoniyatin o'rganish uchun nimalarga e'tibor qaratgan bo'lardingiz?

8-Mavzu test savollari

1. Bozor munosabatlariga o'tish davrida mamlakatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirish uchun eng avvalo nimani hisobga olish talab etiladi?
 - A) eng avvalo hududlar imkoniyatini hisobga olish talab etiladi
 - B) eng avvalo hududlar ehtiyojlarini hisobga olish talab etiladi
 - C) eng avvalo hududlar imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olish talab etiladi*
 - D) eng avvalo hududlar iqtisodiy salohiyatini hisobga olish talab etiladi
2. Hududlarning imkoniyatlarini baholashda eng avvalo ularning nimalari atroflicha tahlil etiladi?
 - A) yer-suv, aholi va mehnat resurslari
 - B) qazilma boyliklari va transport tizimi
 - C) ijtimoiy infrastrukturasini, iqtisodiy geografik o'rni va ekologik vaziyati
 - D) barcha javoblar to'g'ri*
3. Toshkent viloyati qanday imkoniyat va muammolarga egaligini aniqlang?
 - A) Toshkent viloyatida transport tizimi yaxshi, qazilma boyliklari, mehnat resurslari ham ko'p, iqtisodiy geografik o'rni ham qulayroq. Biroq, bu yerda ekologik vaziyat nochorroq.*
 - B) Toshkent viloyatida transport tizimi yaxshi, qazilma boyliklari va mehnat resurslari ko'p, ekologik vaziyat nisbatan yaxshi, biroq iqtisodiy geografik o'rni noqulay
 - C) Toshkent viloyatida transport tizimi yaxshi, mehnat resurslari ko'p, iqtisodiy geografik o'rni ham qulayroq. Biroq, bu yerda qazilma boyliklari kam va ekologik vaziyat nochorroq.
 - D) Toshkent viloyatida transport tizimi yaxshi, qazilma boyliklari ko'p, ekologik vaziyat yaxshi, iqtisodiy geografik o'rni ham qulayroq. Biroq, bu yerda mehnat resurslari yetishmaydi
4. Farg'ona viloyati qanday imkoniyat va muammolarga egaligini aniqlang?
 - A) Farg'ona viloyatida ishchi kuchi ko'p, qazilma boyliklari kamroq, ekologik vaziyat o'rtacha, biroq, bu yerda transport tizimi nochorroq.
 - B) Farg'ona viloyatida transport tizimi yaxshi, qazilma boyliklari va mehnat resurslari ko'p, ekologik vaziyat nisbatan yaxshi, biroq iqtisodiy geografik o'rni noqulay.
 - C) Farg'ona viloyatida transport tizimi yaxshi, mehnat resurslari ko'p, iqtisodiy geografik o'rni ham qulayroq. Biroq, bu yerda ekologik vaziyat nochorroq.
 - D) Farg'ona viloyatida ishchi kuchi ko'p, qazilma boyliklari kamroq, ekologik vaziyat o'rtacha.*
5. Xorazm viloyatining eng asosiy rivojlanish omili bu ...?
 - A) uning mehnat resurslaridir.*
 - B) uning qazilma boyliklari va transport tizimidir
 - C) uning ijtimoiy infrastrukturasini va iqtisodiy geografik o'rnidir
 - D) barcha javoblar to'g'ri
6. Hududlarning rivojlanish imkoniyatlari va ustivor yunalishlari aniqlashda qaysi tadqiqot usulidan keng foydalaniladi?
 - A) kartografik
 - B) statistik
 - C) geografik taqqoslash
 - D) barcha javoblar to'g'ri*